

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**Boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi kafedrası**

Shodmonqulova Sevara Rahmonqul qizi

Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullari

5141600- boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr akademik darajani olish uchun yozilgan

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi X.Xo'janov

Malakaviy bitiruv ishi boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2013 yil ____maydagi majlisida muhokama qilindi va
himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №____).

Kafedra mudiri:

f.f.n.F.Shodiyev

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2013 yil ____iyundagi majlisida himoya
qilindi va foizga baholandi (bayonnoma №____).

YaDAK raisi:

A'zolari:

Samarqand – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-7
I BOB. Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullarining nazariy asoslari	
1.1. Boshlang'ich sinflarda savodxonlikka o'tishda bolalar nutqini o'stirish.	
1.2. Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standartida o'quvchilar bilim, ko'nikmalariga qo'yiladigan minimal talablar.....	8-19
II BOB. O'qish darslarida bolalar yozuvchilarining asarlari bilan tanishtirishning amaliy shakl va metodlari	
2.1. Savod o'rgatish davrida qo'llaniladigan noan'anaviy o'qitish metodlari tavsifi	30-39
2.2. Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullariningdan foydalanishning shakl, metod va vositalari.	40-48
2.3 Tajriba - sinov ishlari	
XULOSA VA TAVSIYALAR	49-50
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	51-52

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq.

I.A.Karimov

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi:

O'zbekistonimizda mustaqillik sharofati bilan barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirildi, iqtisodiy rivojlantirishning o'zbek modeli, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilib, kelajak avlodni tarbiyalash borasida zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalar qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. Bunday sharoitda inson faoliyatining nazariy va amaliy qirralari ham uzluksiz yangilanib turishi tabiiydir. Pedagogik faoliyat ham alohida va murakkab mehnat turi sifatida bundan mustasno emas. Pedagoglar o'z faoliyatlarida kafolatlangan natijalarni qo'lga kiritishga urinmoqdalar.

XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilganidek, pedagogik va axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va

kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda.

Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Barkamol avlodni tarbiyalash – “Ta'lim to'g'risdagi” Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dastiri”da Respublika ta'lim xodimlari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifalar yuklangan. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishiga yangicha yondashish, o'qituvchilarni o'z kasbiga va tarbiyalanuvchilarga o'ta ma'suliyatli munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Bu dastur yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy, ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to'g'ri yo'l topa olish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Mamlakatimiz rahbari I. A. Karimov ta'kidlaganidek: «Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zaruriyat sezila boshlandi»¹ Yurtimizning kelajagi, uning ertangi taqdiri, ozod va obod jamiyat qurilishiga erishishimiz ham ma'lum ma'noda shu islohatlarning natijasiga bog'liq edi. «Chunki ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni

¹I.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur»jurnali, 1998y, 2-son, 29 bet.

o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad- ozod va obod jamiyat barpo etib bo'lmaydi»² degan yurtboshimizning fikrlaridan ta'lim-tarbiya islohati, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga erishish mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Mamlakatning ertangi kuni esa, dunyoqarashi keng maktab bolalari va zamonaviy, salohiyatli o'qituvchi-murabbiylarga ko'p jihatdan bog'liqdir.

O'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot tyexnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan foydalana olishi muhimdir. Bu esa o'quvchilarda mutsaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalash, o'quv faoliyatini tahlil qilish, itsiqbolda kasbiy mahorat va kompyutyer savodxonligini orttirish ularning ichki ehtiyojiga aylantirilishini talab etadi.

Prezidentimiz I.Karimov «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdin mavzusidagi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi nutqida: «Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz»,³ - degan edi. Bunday ulug' maqsadni amalga oshirish sohasidagi vazifalar «Barkamol avlod yili» Davlat dasturuda ham belgilab berildi.

Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e'tibor ta'lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi. Ta'lim

²O'sha joydan. 29-30 bet.

³ I.Karimov «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir». T.: O'zbekiston, 2010-y. 48-bet.

tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi olgiga qo'yilgan muhim vazifalardir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta'limning yangi-yangi yo'l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga tayyorlash bugungi ta'limning oldiga qo'yilgan talablardan biridir. Chunki pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini oson va qiziqib o'rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o'qituvchining ham professional o'sishiga, ham ma'naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Inson har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va mexanizmlarini yaratish, eskicha tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor andozalarini o'zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadidir. Xalqning boy zamonaviy madaniyati, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiya sohasidagi yutuqlari asosida mutaxassislar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida tadbiq qilish hozirgi davr talablaridan biri hisoblanadi. Shularni inobatga olib biz o'z bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini "Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullari" deb nomladik.

Tadqiqotning maqsadi: Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullarining shakl va usullarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti: Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullari

Tadqiqotning predmeti: Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullaridan foydalanish jarayoni.

Tadqiqotning farazi: Savod o'rgatish davrida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish samaradorligi oshadi. Agarda:

- O'quv jarayonida noan'anaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari ilmiy nuqtai nazardan asoslansa;
- Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullaridan foydalanishga qaratilgan ta'lim modeli haqidagi ma'lumot umumlashtirilsa;
- savod o'rgatish davrida o'quvchilar mustaqilligini ta'minlashning va ta'limni individuallashtirishning shakl va metodlari belgilansa.

Malakaviy bitiruv ishini bajarishda tadqiqotning maqsadi va qo'yilgan farazlar asosida quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullaridan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklarini mavjud ilmiy adabiyotlar va monografik tadqiqotlar natijalari asosida asoslash;
- Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullaridan foydalanishga qaratilgan ta'lim modeli haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish;
- savod o'rgatish davrida o'quvchilar mustaqilligini ta'minlashning va ta'limni individuallashtirishning shakl va metodlarini aniqlash;
- savod o'rgatish davrida ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan interfaol ta'lim metodlari va didaktik o'yinlardan foydalanish shakllarini belgilash.

Tadqiqotning metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I.A.Karimovning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari; Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi Qonun va Qarorlari; «Ta'lim to'g'risidagi» Qonun; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»; Uzluksiz boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi; «Boshlang'ich ta'lim to'g'risidagi talablar»; DTS; «Maktab ta'limi to'g'risidagi Nizom va Konsepsiyalar» tashkil etadi.

Tadqiqot bazasi. Tadqiqotning bazasi sifatida Samarqand shahar 14- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi xizmat qildi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi: Tadqiqot kirish, ikki bob, umumiy xulosa, adabiyotlar ruyhatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi _56__betni tashkil etadi.

I BOB. Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullarining nazariy asoslari

1.1. Boshlang'ich sinflarda savodxonlikka o'tishda bolalar nutqini o'stirish.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellyektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim tye bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali myetodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidyentimiz I.A.Karimov o'zining «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modyernizatsiya modyeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan⁴. Buni ta'minlash bo'lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu

⁴ I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - Тошкент: O'zbekiston,2009. – 6.7.

muhim vazifani hal qilishning samarali yo'llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo yechimini ham muhtaram Prezidentimiz o'zining «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida “...farzandlarimizni mustaqil va kyeng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim,” deb ta'kidladi⁵.

Savod o'rgatish murakkab jarayon. Ana shunday muhim va murakkab vazifani samarali hal etish uchun o'qituvchi ta'lim metodlarini to'g'ri va o'rinli qo'llashi, darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi, darsda o'quvchilarning tayyorgarlik darajalari hamda o'zgaruvchanlik qobiliyatlariga muvofiq ish olib borishi lozim. Ayniqsa bolalarning olti-etti yoshidan o'qitilishi savod o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni ongli hal etishni taqazo etadi. Bu o'rinda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'qish-yozishni o'rgatish metodlarini to'g'ri tanlash nazarda tutiladi.

Savod o'rgatish metodlarini takomillashtirish haqida fikr yuritishdan oldin bu haqdagi mavjud fikrlar va uning tarixi bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir. Savod o'rgatish metodlari jamiyatimiz taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida turlicha shakllanib, uzoq tarixiy davrni boshidan kechirgan.

Manbalarda ta'kidlanishicha, Respublikamiz hududida dastlabki boshlang'ich maktablar yoki xat-savod chiqarish maskanlari VIII asrda Turkistondagi birinchi ibtidoiy maktab hijriy 94 yili (milodiy - 713 yil) Qutayba ibn Muslim Boxiriy tomonidan Buxoro arkida zardushtiylar ehromi o'rnida bunyod etilgan.

Eski maktabga bolalar 6-8 yoshlar atrofida qabul qilingan. O'quv kursi 5-8 yil davom etib, bolalar xat-savod chiqarish bilan bir qatorda arifmetikadan dastlabki bilimlar olganlar, yozuvga o'rgatilganlar, madrasalarga o'qishga kirish uchun zarur bilimlarni egallaganlar.

⁵ I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

Xalq ta'limi sohasidagi islohotlarni amalga oshirishning muhim omillaridan biri ajdodlarimiz merosini o'rganish va ularning zamon talablariga muvofiq keluvchi jihatlarini qadriyat sifatida qayta tiklashdir.

Tarixiy manbalarda aytilishicha respublikamiz hududida o'rta maxsus va oliy ta'lim o'choqlari hisoblangan dastlabki madrasalar, chunonchi, Forjak madrasasi (Abu Bakr Muhammad Narxashiy «Buxoro tarixi» asarida 937- yilgi yong'inda zarar ko'rgan, deb aytib o'tgan) kabi ziyolilar tayyorlovchi bilim maskanlari faoliyat ko'rsatgan, yurtimizda milliy an'anaviy ta'lim tizimi shakllana borgan. O'zbek an'anaviy ta'lim tizimi tarkibini: boshlang'ich maktablar, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari madrasalar, xususiy ta'lim, ixtisoslashtirilgan ta'lim va mustaqil ta'lim shakllari tashkil etgan.

Milliy an'anaviy ta'lim tizimining dastlabki bosqichi hisoblangan boshlang'ich maktablar O'rta Osiyo tub joyli aholisi bolalari uchun xat - savod chiqarish maskanlari bo'lib, ular yurtimizda VIII asrda paydo bo'lgan. Tarixiy manbalarda Turkistondagi birinchi ibtidoiy maktab hijriy 94-yili (melodiy 713-yil.) Qutayba Ibn Muslim Balxiy tomonidan Buxoro arkida, zardushtiylar ehromi o'rnida bunyod etilgan, deyiladi. 1896- yilda Sank-Peterburgda nashr etilgan katta ensiklopediyada O'rta Osiyo an'anaviy maktablariga quyidagicha ta'rif berilgan:

«Maktab - musulmonlarning masjidlar qoshidagi xat-savod chiqarish va diniy udumlarni o'zlashtirish dargohi». Albatta, chor mustamlakachilari tomonidan maktabga nisbatan berilgan ushbu ta'rifni unchalik to'g'ri va to'liq deb bo'lmaydi.

Maktablarda bolalar xat-savod chiqarish bilan bir qatorda arifmetikadan dastlabki bilimlar olgan, madrasalarga o'qishga kirish uchun zarur bilimlarni egallaganlar.

Odatda, bolalar 6-8 yoshlar atrofida, ayrim iqtidorli bolalar 4-5 yoshdanoq maktabga o'qishga berilgan. Chunonchi, Sadriddin Ayniy to'rt yasharu to'rt oy, to'rt hafta va to'rt kunligida, Mirzo Abdulqodir Bedil besh yosh-u besh oyligida maktabga borib, yetti yoshliklarida Qur'onni bemalol o'qiganlar. O'quv kursi 5-8 yil davom etgan. O'qishning davomiyligi domlaning ilmiy saviyasiga, o'quvchining

zehriga hamda o'quvchi oilasida uning o'qishiga nisbatan yaratilgan sharoit va muhitga bog'liq bo'lgan. Maktablarda mashg'ulotlar juma va bayram kunlaridan tashqari har kuni quyosh chiqishidan asr nomozigacha davom etgan. Tushlik uchun tanaffusga chiqilgan. Yoz oylarida va ro'zai-ramazon oylarida ta'tilga chiqilgan.

Milliy an'anaviy maktablarda maktab xarajati va domlarning daromadi xayriya mulklari bo'lmish vaqf mulklaridan tushgan daromadlar hamda o'quvchilarning ota-onalari tomonidan o'qish uchun to'lanadigan mablag'lar hisobidan bo'lgan. Shariatga ko'ra ilm o'rganish uchun murojaat qilgan kishiga rad javobi berish og'ir gunoh hisoblanganligi, o'qishga kelgan har bir bolaning qaysi ijtimoiy toifadan bo'lishidan va o'qish uchun qancha haq to'lashidan qat'iy nazar o'qituvchilar zimmasiga ularni har qanday e'tirozsiz o'qitish vazifasini yuklagan.

Qiz va o'g'il bolalar alohida-alohida maktablarda o'qitilganlar. O'g'il bolalar masjidlar qoshida ochilgan maktablarda masjid imomi yoki muazzini, agar ular uzrli sabablarga ko'ra rad etsalar, masjid qavmi tomonidan taklif etilgan, madrasani tugatgan boshqa ziyolilar tomonidan o'qitilgan. Shuningdek, ular xususiy maktabdorlar tomonidan maxsus maktabxonalar tomonidan xonadorlarda ham o'qitilganlar. Qiz bolalar esa otin oyi yoki otin bibi deb ataluvchi o'qituvchi ayolar ochgan maktablarda ta'lim-tarbiya olib, xat-savod o'rganganlar.

Maktablarda o'qishga kelgan o'quvchiga, avvalo, musulmonchilikning qasamyodi bo'lgan «Kalimai shahodat» duosi yodlatilgan. Shundan so'ng 28 harfdan iborat arab alifbosi, harflar yozilgan maxsus taxtacha - «lavh» yordamida o'rgatilgan. Harflarning nomini o'qitishdan harf osti va ustiga qo'yiladigan diakritik belgilar - «harakatlar» yordamida bo'g'in tuzishni o'rgatishga o'tilgan. Keyingi o'quv bosqichi «abjatxonlik» deb atalib, bunda o'quvchilar bo'g'inlarni qo'shishga, «Abjadga» ko'ra hisob va ko'paytirish qoidalariga o'rgatilgan.

An'anaviy maktablarda esa kitobxonlik «Haftiyak» (forscha «Qur'oni karimning ettidan biri» degani) kitobini o'zlashtirish bilan boshlangan. Qur'on va «Haftiyak» kabi arab tilidagi kitoblarni yodlash orqali o'quvchilar o'quv dasturi bo'yicha xalqaro arab tilida o'qitishga asoslangan o'rta maxsus va oliy o'quv

yurtlari bo'lgan madrasalarga o'qishga kirish uchun leksik zahira yig'ib borganlar. Savodi chiqqach, bolalar diakritik belgilersiz nastaliq yozuvida fors-tojik tillarida yozilgan «Chori kitob», So'fi Olloyorning «Sabot ul-ojizin», Fariddin Attorning «Mantiq -ut-tayr», Hofiz Sheroziy, Fuzuliy, Bedil, Navoiy, Mashrab kabi Sharq klassik mutafakkirlarining devonlarini o'qib saboq olganlar. Asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarga madrasalarga o'qishga kirish uchun fundamental bilimlar berish va jamiyatning odob-axloq me'yorlarini singdirish bo'lgan o'g'il bolalar maktablari o'quv dasturidan farqli ravishda, qizlar maktablarida arab tilidagi Qur'on matnlarini yodlatishga nisbatan Sharq klassik shoirlari ijodini o'rganishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ularda qizlarni ayollar tarbiyasining o'ziga hos jihatlari, chunonchi uy-ro'zg'or tutish, pazandalik, pokizalik, sharqona odob-axloq me'yorlari kabilar Aliy Nazimoning «Ta'limi banot» («Qizlar tarbiyasi»), Olimat-ul-Banotning «Muosharat odobi», Faxriddin ibn Rizouddinning «Tarbiyali xotun» kabi darsliklar ham o'qitilgan.

XIX asrning oxirlaridan paydo bo'la boshlagan jadid usulidagi maktablardan farq qilgan holda, o'zbek an'anaviy maktablarida bolalar o'qishni to'liq o'zlashtirib olgandan keyin yozishni o'rganishgan. O'qituvchilar, odatda, «So'fi Olloyor», ba'zan «Xo'ja Hofiz» kitoblarini o'qiy oladigan bo'lgandan keyingina «xatga tushgan». yozuvga o'rgatish bir necha bosqichda olib borilgan. Dastlab alohida harflar yozilgan (mufradot bosqichi), keyin harflarni qo'shib yozish mashqlari (murakkabot bosqichi), so'ngra ikki misrali bayt, qit'a, ruboiylarni ko'chirib yozish (mukattaot mashqlari) ga o'tilgan va nihoyat, duoyi salom hamda ish yuzasidan qog'ozlar yozilgan. Domlalar bolalarning yozuvini takomillashtirish uchun ularga «Taxta yozish» (lavhga harflarni yozish), ayrim shoirlarning kitoblaridan parchalar ko'chirib yozish mashqlarini ham bajartirganlar. Yozuvga o'rgatishda o'qituvchilar «Badoi-ul-Insho», «Munshoat», «Dastur-ul kuzzot», Saidsalohiddinxo'ja ibn Olovuddinxo'janing «Mufradot», Shermuhammad Avazbek o'g'li Munisning «Savodi ta'lim» kabi darslik qo'llanmalaridan ham foydalanganlar.

O'qitish sinf dars tizimida olib boriluvchi zamonaviy maktablardan farq qilib, an'anaviy usuldagi maktablarda o'quvchilar bilan mashg'ulotlar yakka tartibda olib borilgan va bir domladan saboq oladigan, maktab o'quv kursining turli bosqichlarida o'qitilayotgan bolalarning hammasi bir sinfxonada o'tirib o'qitilavergan. Shunga muvofiq, darsxonaning to'rida Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Xofiz Sheroziy, So'fi Olloyor asarlari, «Chor kitob» kabi murakkab qo'llanmalarni o'rganayotgan o'quvchilar, o'rtada Qur'on, «Haftiyak» yodlab o'rganuvchi poygakda «abjadxonlar» (bo'g'inlab o'quvchilar, «Abjad»ga ko'ra hisob va ko'paytirishni o'rganuvchilar), «taxtaxonlar» (arab alifbosi harflari yozilgan maxsus taxtacha - «lavh»dagi harflarni yodlab o'rganayotgan o'quvchilar) o'tirganlar. O'qitishdagi bunday o'ziiga xoslik o'quvchilarni o'qishga yilning aniq belgilangan paytida emas, balki yil davomida qabul qilinaverishiga imkon bergan.

Klassik usuldagi o'zbek milliy maktablarida o'quvchilarning bilimlarini baholash o'ziga xos bo'lib, ularda bolalarning individual qobiliyatlariga katta e'tibor qaratilgan hamda bilimlar o'zlashtirilishiga qarab «qoniqarli» yoki «qoniqarsiz» deb baholangan. Agar o'quvchi topshirilgan vazifani yetarli darajada o'zlashtirgan bo'lsa, u navbatdagi darsni o'qishga o'tgan, agarda qoniqarsiz o'zlashtirgan bo'lsa, o'qituvchi unga kelgusi darsda ham shu saboqlarni takrorlashni topshirgan. Shu tarzda o'quvchi saboqdan qoniqarli darajada bilim olmas ekan, unga yangi saboq berilmagan. O'qituvchining sinovlaridan o'tgan bolalar «taxtaxonlik»dan «abjadxonlik»ka, undan «haftiyakxonlik» va keyin «kitobxonlik»ning boshqa murakkab bosqichlariga o'tkazilgan. Shunga muvofiq iqtidorli bolalar o'z qobiliyatlariga ko'ra boshlang'ich maktab kursini tez fursatda o'zlashtirib, ta'limning keyingi yuqori bosqichiga o'tganlar, nisbatan o'qishga qobiliyati sust, dangasaroq bolalar bu maktablarda ancha vaqt o'qiganlar. Iqtidorlilar esa alohida darg'alarga sazovor bo'lgan. Masalan, Alisher Navoiy boshqa tengdoshlari Sa'diy Sheroziyning «Guliston» va «Bo'ston» to'plamlaridagi she'rlarni o'qiganlarida, u ularga nisbatan murakkabroq bo'lgan, tasavvur

tariqatining yirik namoyondasi Fariddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asarini qiziqish bilan o'rgangan va tez o'zlashtirgan...

Bolalarni yozuvga o'rgatishni baholashda ham individual mezon asosiy vosita hisoblangan. «Mufradot» bosqichini qoniqarli o'zlashtirgan bolalar uchun «Murakkabot» mashqlariga o'tish, uni yetarli darajada egallagan o'quvchilar uchun «Mukattaot» mashqlari va undan duoyi salom hamda ish yuzasidan qog'ozlar yozishga o'tish o'quvchilarni rag'batlantirish va baholash usullari hisoblangan.

Ijtimoiy taraqqiyot o'sishi, zamon talablari bilan bog'liq tarzda XIX asr oxiri - XX asr boshlarida taraqqiyparvar milliy ziyolilar tomonidan klassik usuldagi an'anaviy maktablar Yevropacha usuldagi birmuncha isloh etila boshlandi. Chunonchi, ularda mashg'ulotlar sinf dars tizimida o'tilgan; birinchi darslik sifatida ona tilidagi alifbo o'qitilgan; savod tovush uslubida chiqarilgan va o'quvchilar yozuvga o'qish bilan bir paytda o'rgatilgan.

Ijtimoiy taraqqiyotning o'sishi, zamon talablari bilan bog'liq tarzda XIX asr oxiri XX asr boshlarida taraqqiyparvar milliy ziyolilar tomonidan klassik usuldagi an'anaviy maktablar Yevropacha usuldagi birmuncha isloh etila boshlandi. Chunonchi, ularda mashg'ulotlar sinf dars tizimida o'tilgan. Birinchi darslik sifatida alifbo o'qitilgan. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodika o'tilib, o'quvchilarga bir vaqtda o'qish va yozish o'tila boshlandi.

Turkistonda savod o'rgatish metodlarini takomillashtirishga o'z hissasini qo'shgan va birinchi o'zbek tilidagi «Alifbe» kitobini yaratgan Saidrasul Saidazizovdir.

Turkistonda rus-tuzem maktabining «Musulmoncha sinf» o'qituvchisi bo'lib ishlagan Saidrasul Saidazizov (1866-1933) 1902-yil fevral oyida o'zbekcha Alifbe kitobini yozib tugallaydi. Bu alifbe kitobini u «Ustodi avval» deb nomlagan. Bu kitob 1902-yil sentyabr oyida 3000 nusxada bosilib chiqqan.

Saidrasul Saidazizov dastlabki o'zbek tarjimonlaridan biri bo'lib, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, S.M.Grameniskiy kabi pedagoglarning maktablar

uchun nashr qilingan o'qish kitoblaridagi bolalarbop asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, «Ustodi avval»ida bergan.

«Ustodi avval»ning muallifi alifbe tuzishda o'z oldiga ikki xil maqsad qo'ygan ya'ni:

a) o'zbekcha xat - savod o'rgatish;

b) bolalarni arabcha xat-savoddan xabardor qilib, Qur'on suralaridan kichik-kichiklarini o'qish, yod aytishga o'rgatish.

1. Mazkur maqsadga ko'ra «Ustodi avval» kitobi ikki qismga bo'linadi:

O'zbekcha xat-savod o'rgatish (2-51 betlar).

2. Arabcha, ya'ni «Qur'on xati» niYu suralarini o'qishga o'rgatish (52-71 betlar).

«Ustodi avval» ning o'zbekcha xat - savod o'rgatish qismi uch bosqichgu bo'linadi.

1. Xat-savod o'rgatishga tayyorgarlik ko'rish davri. bunda ruchka ushlash, maktabxonalarda qalam bilan, rus tuzem maktablari ruchka va musulmoncha sinflarda (fulok qalam) bilan yozilgan. Daftar tutishga o'rgatish hamda «xurufi xijo» dan bir nechtasini mashq qilish nazarda tutilgan.

2. Alifbe davri «Ustodi avval» ning 2-19 betlari. Bunda 32 harf hamda bu harflarning yozuvda so'zning qayerida kelib, qanday surat - 106 surat kashf qilishi, ularning yozuvda ifodalanishi shakli berilgan.

Qiroat davri 22-51 betlar. Bunda avval, «zer-zabar» yuzasidan malaka hosil qilish nazarda tutilgan, so'ngra o'qish uchun so'z birikmalari hamda matnlar berilgan.

«Ustodi avval» ning arabcha, ya'ni Qur'on xat iva suralarini o'qishga o'rgatish qismi (52-71 betlar) o'ziga xos ilmiy asoslangan qoidalar asosida tuzilgan. Bunda ta'limning ongli bo'lishiga muallif alohida e'tibor bergan. Turkistondagi hamma maktab turlarida dinni ta'lim maktablarining o'quv rejasiga kiritilgan o'quv fanlaridan biri bo'lgan. Bola maktabga kelgan birinchi kunidanoq mazkur o'quv fani o'qitila boshlangan. Bu masalani «Ustodi avval» ning muallifi turkistonda

birinchi bo'lib boshqacha hal qilgan, ya'ni avval bolalarni o'z ona tilida xat-savodli qilish, ona tili alifbosini o'rgatish so'ngra «Alifboi Qur'oniy» dan ta'lim berish zarur deb bilgan. Mualliya bunday yozgan edi:

«Ustodi avval»ning foydasi daf'atan o'qimoq, yozmoq uchun ko'prikdir. Alifbeni o'qib va bitib bo'lgandan so'ng hikoyatlarga yaqin vaqtda kitob oxiridagi alifbeni qur'oniy bilaturib, andin xam oz-oz saboq beriladur to oxirigacha».

«Ustodi avval»ning o'z darsligini xat-savod o'rgatishning yangi usulida tuzilganligini, o'sha yillari o'zbekcha metodik adabiyotlar, maqolalar nashr qilinmasligini nazarda tutib, alifbening boshida muallimlar uchun metodik yo'l-yo'riqlar bergan.

O'rta Osiyoda Saidrasul Saidazizovdan keyin ko'plab fan jonkuyarlari milliy alifbelar yaratish va uni takomillashtirishga harakat qildilar.

«Ustodi avval» kitobidan keyin 1901-yillarda Tonkentda Munavvarqori tomonidan «Adibi avval»nomli alifbo yaratildi. Bu alifbo Turkistondagi usuli jadid maktablarining ko'pida ba'zi rus-tuzim maktablarida ham qabul qilinib dars jadvaliga kirgiziladi. Bu alifboga Oktyabr inqilobigacha tuzatishlar kiritilib nashr qilinadi. Alifboning so'nggi bosmalari rasmi bo'lib chiqadi.

O'rta Osiyada uchinchi alifbo «Binchi muallim» nomi bilan 1912-yilda Abdulla Avloniy tomonidan yozildi. Alifbo Toshkentda «Maktab» kutubxonasining harfi bilan nashr qilinadi. Oktyabr inqilobigacha 4-5 marta bosilib chiqadi.

To'rtinchi alifbo Xivada mualliflik qilgan Muxtor Bakirov tomonidan yozilgan bo'lib, kitob «Savod» deb nomlanadi. Bu alifbo o'zbekcha, totorcha, turkmancha, aralash shevada yozilgan. Kitob 1913-yilda Qozonda nashr qilinadi.

O'rta Osiyoda beshinchi alifbe «Ta'limi avval» nomi bilan Rustambek Yusuf o'g'li tomonidan yozildi. Alifboning birinchi bosmasi taxminan o'n ikkinchi yillarda, ikkinchi bosmasi esa 1914-yillarda nashr qilingan.

Turkistonda uyg'onish davrida chiqqan oltinchi alifbo «Turkiy alifbo»dir. Bu alifbo, 1916-yilda muallif Muhammadjon Abdulxoliq o'g'li tomonidan yozilib

Qo'qonda «G'ayrat» kutubxonasining tasorifi bilan bosiladi. Alifbo kitobi rasmlil bo'lgan.

Yettinchi alifboni Samarqandda Sayidrizo Alizoda tuzgan bo'lib, «Zarafshon» kutubxonasi orqali nashrga chiqarilgan bu alifbo 96 betdan iborat bo'lib, 1917-yilda faqat bir marotaba bosiladi.

Shuningdek, bu alifbolardan tashqari yana 1912-1914-yil oralarida Farg'onada «Miftoxul alifbo», «Miftoxul avval», «Taxsil alifbo» nomli alifbolar ham bosilib chiqadi. Bulardan «Miftoxul alifbo»ning tuzuvchi Mirzo Hayrullodir. «Taxsil alifbo» esa Abdullaxon Ibodiy tomonidan yaratilgan. Turkistonda oktyabr inqilobigacha chiqqan alifbolar yuqoridagilar hisoblanadi. Bu alifbolarning ko'pi bir-biriga taqlid etilib yozilgan bo'lib, biroz tuzuklari «Adibi avval», «Turkiy alifbo» va «Birinchi til» nomli alifbelar hisoblangan.

Oktyabr inqilobidan keyin chiqqan alifbolar esa quyidagilardir:

«Rahbari avval» - bu alifbo 1918-yilda Toshkentda faqat bir marta bosilgan bo'lib, M.Faxriddin tomonidan tuzilgan va «Hurriyat» kutubxonasi orqali nashr qilingan.

«O'rtoq» deb nomlangan alifbe esa Samarqandda 1918-yilda maorif mudiri bo'lib ishlagan Chechavichkinning tashabbusi bilan Vyatkin tomonidan tuziladi. Bu alifbe 20 ming dona bosiladi, lekin bu alifbedan maktablar hech qanday foyda ko'rmaydi.

1919-yildi Shokirjon Raximiy tomonidan «Sovg'a» deb nomlangan alifbe tuziladi. Bu alifbe rasmlil bo'lib Turkiston jumhuriyatining maorif komissarligi xarji bilan nashr qilinadi. Bu alifbe har safar nashr qilinishida tuzatishlar kiritilib, besh marotaba bosiladi.

M.Qodiriy, A.Mo'miniy va Sh.Isloimiylar hamkorlikda «Kattalarga o'qish» nomli alifbe tuzadilar. Alifbe 1920-yilda «Davlat nashriyoti» tomonidan ko'p miqdorda bosilib chiqariladi. Bu alifbe Amerika usulida yozilganligi uchun, bu usuldan habarsiz muallimlar undan keragicha foydalana olmaydilar va o'qitishga qiynaladilar.

«Til ochgich» - bu rasmi alifboni tuzuvchisi Hasanali Nosiriydir. Alifbe 1922- yilda 5 ming nusxada nashr qilinadi.

Shokirjon Raximiy «O'zbek alifbosi» nomli rasmi alifbo tuzadi. Alifbe «Davlat nashriyoti» tarafidan 1922-yilda faqat bir marta 25 nusxada bosiladi. Bu alifbe kitoblaridan keyin alifbe kitobini bolalar yozishga mos qilib, sodda va uni takomillashtirishda katta hissa qo'shgan kishilardan biri Oqilxon Sharofiddinovdir. Oqilxon Sharofiddinov butun umrini ilm-ma'rifatga, bolalar tarbiyasiga baxshida etgan. Oqilxon Sharafiddinov «Bilim va mehnat», «Alifbe», «Mehnat bolalari», «O'qish kitobi», «Kattalar alifbesi», «Chiroyli yozuv», «Alifbe metodikasi» singari ko'pgina kitoblar yaratdi. Bu kitoblar 1929 – 1930-yillarda nashr qilindi. Bular orasida, ayniqsa, «Alifbe» kitobi ko'pchilikka ma'qul bo'ldi. Shu tufayli 1938-yildan boshlab «Alifbe» ommaviy nusxada bosilib, jumhuriyat maktablarida asosiy kitob - qo'llanma bo'lib ishlatila boshlandi.

Oqilxon Sharofiddinovdan keyin «Alifbe» kitobini, savod o'rgatishni takomillashtirish bo'yicha Qumri Abdullayeva ish olib bordi.

Mustaqillik davri kelib o'quvchilarga savod o'rgatish davrida qo'llash uchun T.G'afforovanning «Alifbe» (savod), O.Sharofiddinov va Q.Abdullayevalar yaratgan «Alifbe» (Shodlik), 2003-yildan boshlab Rohatoy Safarova hammuallifligidagi yangi «Alifbe» darsligi savod o'rgatish davrida o'quvchilar savodini chiqarish xizmat qilib kelmoqda.

Maktabda o'qish elementar o'qish va yozuvga o'rgatishdan boshlanadi. «Alifbe» ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida bolaga o'qish va yozish o'rgatiladi. Keyin o'qish va yozish ko'gikmasi takomillashtira borib malakaga aylantiriladi, malaka mustahkamlanadi. Avtomatlashtira boriladi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq.

Savod o'rgatishda analitik - sintetik tovush metodi shu davrga qadar yuqorida ta'kidlaganimizdek rivojlanishning murakkab yo'lini bosib o'tdi. Bugungi kunga kelib Respublikamizdagi ko'p sonli boshlang'ich sinf o'qituvchilari analitik-

sintetik tovush metodidan ijodiy foydalangan holda o'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatib, ijobiy natijalarga erishmoqdalar.

Bu metodga ko'ra tovushlar so'zlardan ajratib tahlil qilinadi. Ya'ni savod o'rgatishda bo'g'inlab o'qish prensipi qabul qilingan. O'quvchilarning eshitish va idrok qilish qodiliyati taraqqiy ettiradi. Savod o'rgatishda o'zbek alfavetidagi harflarning to'rt shakli (bosma va yozma, katta va kichik) o'rgatiladi. Shu jarayonda o'quvchilar kishilarning ismi va familiyasini, joy nomlarini, gapning harfini katta harf bilan yozilishini o'zlashtiradilar. Savod o'rgatish jarayonida kesma harflardan foydalanish savod chiqarishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Kesma harflardan bo'g'in tuzish, bo'g'inlardan so'z hosil qilish savod chiqarishdagi jarayondir. Shuning uchun birinchi sinf o'quvchilarida kesma harflar bo'lishi lozim. Chunki kesma harflar bilan ishlash savod o'rgatish davrining eng muhim jarayonidan biri hisoblanadi. Biroq o'quvchilar dastlabki kunlarda kesma harflardan foydalana olmaydilar. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan kesma harflardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirib borishi kerak. Bunda albatta kesma harflardan so'z tuzish mashqi o'rgatiladi. Kesma harflardan tuzilgan so'z tarkibidagi tovushlarni talaffuz qilish orqali ular farqlanadi. Kesma harf bilan ishlash jarayonida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatib boriladi. Dastlabki kesma harflar yordamida tuzilgan so'zlar bo'g'inlarga bo'linib, talaffuz qilinadi. Kesma harflar yordamida so'z va bo'g'inlarni yozish ko'nikmasi hosil qilingach, o'qish mashq qilinadi.

O'qishga o'rgatishda tovushlarni qo'shib o'qish masalasi hosil qilish savod o'rgatish jarayonining muhim qismini tashkil qiladi. Chunki birinchi sinf o'quvchilari so'zni bo'g'inlab emas, harflab o'qiydilar. Bo'g'inlab o'qishga o'rgatilayotganda ham bo'g'inni emas balki harfni o'qiydi, ba'zan bo'g'inni tashkil qilgan harflarning o'rnini almashtirib o'qiydi. Bunda kamchiliklarni tuzatish uchun so'z bo'g'inlari sekin o'qiladi. O'qituvchi tomonidan so'z tarkibidagi tovushlar analiz va sintez qilinadi. Analiz va sintez savod o'rgatish jarayonida bir-biri bilan bog'liq ravishda olib boriladi. Savod o'rgatishda analiz-sintezdan oldin o'tkazilsa-

da, ular bir-birlaridan ajralmaydi. Analiz va sintez savod o'rgatish jarayonida bir-biri bilan bog'liq ravishda olib borish bo'g'inlab o'qish ko'nikmasini shakllantirishning asosini tashkil qiladi. Tilshunoslikda tovushni analiz va sintez qilish usullari maxsus ishlangan.

Alifbeshunos olimi Qumri Abdullayeva o'quvchilarga yangi tuvosh va harflarni o'rganish uchun quyidagi tartibni tavsiya etgan.

I. ANALIZ METODI

- a) Nutqdan gapni ajratish;
- b) Gapni so'zlarga ajratish va zarur bo'lgan so'z yuzasidan talaffuz mashqini o'tkazish;
- s) Ajratib olingan so'zni bo'g'inlarga bo'lish;
- d) Bo'g'in tartibidan o'rganilgan tovushni ajratish va talaffuzini o'rganish;
- e) Yangi tovushning grafik belgisi-bosma harf bilan bolalarni tanishtirish.

II. SINTEZ METODI:

- a) Kesma harflardan bo'g'in va so'z tuzish;
- b) Tuzilgan so'zni o'qish;
- s) Tuzilgan yangi so'zni «Alifbe» kitobidan o'qish;
- d) Yangi so'z ishtirok etgan gapni «Alifbe» dan o'qish.

Analiz va sintez jarayonining bir butunligi shundaki, so'z analizi natijasida o'qituvchi so'zning ma'no anglatishini tushunib boradi. Bu so'z o'rnida sintezdir. So'ng ma'nosini anglash ya'ni uni sintez qilish, so'zning tovush tarkibini

o'rganishini talab qiladi. Bu analizdir. Ko'rinadiki savod o'rgatishda analiz va sintez uzviy bir-biri bilan bog'liqdir.

Keyingi yillarda ko'p sonli boshlang'ich sinf o'qituvchilari yuqorida ta'kidlab o'tgan analiz-sintez metodidan foydalanib, savod o'rgatish jarayonida ijobiy o'zgarishlarga erishib keldilar.

Ta'lim jarayonidagi o'zarishlar analitik - sintetik tovush metodidan foydalanishda olimlarimiz tomonidan turli tavsiyalarning taklif etilmoqda.

Metodist olim Mahmudjon Yusupov o'zining «O'qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish» nomli metodik qo'llanmasida analitik-sintetik tovushdan foydalanishning quyidagi usulini taklif etgan.

ANALITIK MASHQLAR:

1. Belgilangan tayanch so'zini va tarkibidagi yangi o'rganilayotgan tovushni to'g'ri talaffuz qilish;
2. Yangi o'rganilayotgan tovushni tayanch so'zdan ajratib olish va sof holda talaffuz qilish;
3. Shu tovushni talaffuz qilish jarayonida nutq organlarining holatini amaliy ko'rsatish va izohlab tushuntirish;
4. Talaffuzi o'rganilgan tovushni to'g'ri so'zlar tarkibidan topish;
5. Tarkibidagi yangi o'rganilgan tovush ishtirok etadigan so'zlar tanlash;
6. Talaffuzi o'rganilgan tovushning grafik belgisi - bosma harf bilan tanishtirish;
7. Harfning bosh va kichik shaklini, oldin o'rganilgan harflardan farqini ko'rsatib, tushuntirish.

SINTETIK MASHQLAR:

1. Kesma harflardan bo'g'in tuzish va o'qish;
2. Bo'g'inlardan so'z tuzish va o'qish;

3. «Alifbe» tushunchalarida bo'g'inlarga bo'lib berilgan so'zlarni o'qish;
4. «Alifbe»dagi so'z va gaplarni o'qish.

M.Yusupov asosiy maqsadni nazarda tutib, analitik mashqlarni nutqdan emas, so'zdan boshlashni tavsiya etadi. Bunda o'quvchilarga tovushni o'rgatish uchun shu tovush ishtirok etgan bir necha so'z tanlash kerak. Tanlangan tayanch so'z ifodalaydigan predmet o'quvchilarga tanish bo'lsa ish osonlashadi. Bundan tashqari o'rganiladigan tovush so'zning qaysi qismi (bosh, o'rta yoki oxiri) da kelishi muhim ahamiyatga egadir. O'rganilgan tovush faqat so'zning boshida kelsa, shu unli tovush alohida bo'g'in hosil qiladigan so'z tanlashini va shu ifodalaydigan predmetning o'zini yoki rasmini ko'rsatish imkoniyatini hisobga olish lozim.

Masalan: X,O unli tovushini o'rganishda ona, og'iz yoki kabi so'zlardan foydalanish mumkin.

O'quvchilarga unli tovushni o'rgatishdan ko'ra undosh tovushni o'rgatish ancha murakkab. Chunki undoshlar sof holatda qisqa talaffuz qilishdan ko'ra unli qo'shib d, e, v, e, b, e sinfgari talaffuz qilish osonroq bo'ladi. Undosh tovushlar faqat bo'g'in yoki so'z oxiridagina sof holatda eshitiladi.

Masalan: qand, obod so'zlarida yaxlit eshitiladi. Ba'zi bir holatlarda tanlangan tayanch so'zlarning ayrimlari shevalarda boshqacharoq eshitiladi. Masalan, o'quvchilar maktab - maktap, kitob - kitop, qand-qant singari talaffuz qiladilar. Bunday holatda o'quvchi shu so'zlarning adabiy talaffuzini tushuntirishi va to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishligi lozim.

Yuqorida tavsiya etilgan usul o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan maqsadli deb qarash mumkin. Biroq bugun maktablarimizda o'qitilayotgan har ikkala «Alifbe» («Savod» va «Shodlik») darsligi uchun chiqarilgan metod qo'llanmalari asosida o'qitish maqsadga muvofiqdir.

Demak, analitik - sintetik ishlar bir butun holda olib borilgandagina o'quvchilarga o'qish va yozish ko'nikmalarini o'stirish mumkin bo'ladi. Bu ko'nikmalarni hosil qilishda «Alifbe» o'quv kitobi ularga katta yordam beradi.

Birinchi sinf o'quvchilariga savod o'rgatish vazifalari o'qish va yozish darslarida bajariladi. Bu darslar davomida o'quvchilarga dastlabki o'qish va yozuv malakalari shakllanadi. Shu bilan birga, nutq o'qitish, imlo doiralarini o'rganishga tayyorlash masalalari hal etiladi.

Analitik-sintetik tovush metodika savod o'rgatish sentabrdan boshlanib, dekabr oyining oxirigacha davom etadi va ikki davrga bo'linadi:

1. Tayyorgarlik davri
2. Alifbe davri

Tayyorgarlik davrining tovush va harf o'rganilmaydigan birinchi bosqichida (5 soat) o'quvchilarga qo'yidagi eng oddiy nazariy - amaliy tushuncha va ko'nikmalar hosil qilinadi:

- Nutq. Og'zaki va yozma nutq haqida umumiy tasavvur hosil qilish;
- Gap. Nutqni gaplarga ajratish;
- So'z. So'zlarni adabiy-orfoepik jihatdan to'g'ri talaffuz qilish, ma'nosini tushuntirish;
- Bo'g'in. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish va bo'g'inlar sonini aniqlash;
- Tovush. Unli va undosh tovushlarni farqlash.

Toshuv va harf o'rgatiladigan ikkinchi (7 soat) beshta unli tovush (a, e, u, i, o') bilan tanishtiriladi va o'quvchilarda qo'yidagi bilim va ko'nikmalar hosil qilinadi:

- So'zlarni bo'g'in, tovush, tovush - harf jihatdan tahlil qilish;
- O'rganilgan unli tovushning alohida va so'z tarkibida to'g'ri talaffuz qilish;
- O'rganilayotgan unli tovush ishtirok etgan so'z topish;
- Tovush va harf hususiyatlarini bilish. Tovushlarni talaffuz qilamiz va eshitamiz. Harflarni yozamiz, ko'ramiz va o'qiymiz.

Bu davrda fonematik eshitishni o'stirishga katta ahamiyat berish bilan birga maktabning talab va qoidalari bilan to'liq tanishtirib boriladi.

Maxsus nushalardagi rasmlı varaqalar asosida, o'qituvchi va o'quvchi o'rgatishda dialogik savol-javoblar orqali o'quvchilarni bog'lanishni nutq o'sib, shakllanib boradi.

Nutqni shakllantirish uchun yuqoridagi vazifalardan tashqari o'zlari bilan she'r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol topishmoqlarni aytirish lozim.

Alifbe davr uzoq davr davom etadigan mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. O'quvchilar bu davrda o'zbek tilidagi tovushlarni to'liq bilib oladilar, hamma harflarni o'qish va yozishni o'zlashtiradilar. Ma'lumki, savod o'rganishda tovush va harflarni o'rganish alfavit tartibida olib borilmaydi. Antalitik, sintetik, analitek tovush metodi prensipiga muvofiq o'qish va yozish birligi saqlanadi. Tovushlar bilan tanishtirish genetik prensip asosida amalga oshadi. Avval talaffuzi oson bo'lgan, so'ngra tovushlar bilan tanishtiriladi, ya'ni oddiydan - murakkabga qarab boradi. Darslar ham shu usulda joriy qilingandir. N, I, M, T, S kabi talaffuzi oson bo'lgan tovushlar bilan dastlab darslarda tanishtiriladi.

Bu darsda (yuqoridagi) qo'yidagi vazifalar hal etiladi. So'z va bo'g'inning tarkibini tovush tomonida analiz qilish;

- So'zdan bo'g'in boshida, o'rtasida, oxirida kelgan tovushni ajratish;
- So'zda tovush o'rnini aniqlash;
- Tovushni aniq talaffuz qilish;
- Unli va undosh tovushlarni talaffuziga, bir-biridan farqlashga o'rgatish;

- «1-sinfda savod o'rgatish darslari» 1-nomli qo'llanmada savod o'rgatish davri haqidagi darslarning tuzilishi va dars konspektlari berilgan.

1.2. Yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standartida o'quvchilar bilim, ko'nikmalariga qo'yiladigan minimal talablar

Boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standarti O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX - sessiyasida qabbul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Vazirlar Mahkamasining «Uzliksiz ta'lim tizimiga davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi 1988-yil 5-yanvar qarori hamda «Davlat ta'lim standarti to'g'risida»gi Nizomga asoslangan holda belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishgandan keyin iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos yo'liga ega bo'ldi. Mustaqillik ta'lim sohasini ham tubdan yangilash zaruriyatini vujudga keltirdi.

Yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, avvalo, bu sifatlarni o'zimizda mujassamlashtirishni talab qiladi⁶. Shu bilan birga ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashish, yangicha uslub va mazmun, shakl va vositalardan foydalanishni ham taqozo qiladi. Eski uslub bilan vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi. Ko'pgina olimlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, biz bu masalalarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirishimiz mumkin.

⁶ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent-2008. 34-bet

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash ilmiy dasturi» talablari asosida ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsiplari tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning «Davlat ta'lim standarti to'g'risida»gi 7-moddasida belgilab berilganidek, «Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Davlat ta'lim standarti to'g'risida»gi Nizomga binoan umumiy o'rta ta'limga, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun ham alohida-alohida davlat ta'lim standarti talablari va me'yoriy ko'rsatkichlari belgilab qo'yildi:

O'zbekiston Respublikasida «Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomda ta'kidlanganidek boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari ijodiy fikrlash hislatlari o'zini – o'zi nazorat qilish o'quvi, nutq va hulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigeyina va sog'lom turmush tarzi asoslari egallab olinishini ta'minlashga da'vat etilgan. «Shu asosga kura, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va ahloqiy ko'nikmalar, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantirishi lozim. Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaniing mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatni, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z – o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarini o'ziga singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta'lim standarti asosida Davlat boshlang'ich sinf o'quvchilaridan standartda belgilab qo'yilgan minimal ko'rsatkichlarga erishishni talab qiladi va o'z navbatida bu ko'rsatkichlarga erishish uchun zarur bo'lgan ta'limiy xizmatlar va vositalar bilan ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'limga davlat standarti o'quv predmetlari bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari bo'yicha belgilandi. Ta'lim sohalari bo'yicha standart ko'rsatkichlar 7 (6)-11 yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy talab taqozo qilgan ta'lim mazmunining minimal miqdoriga asoslanib belgilanadi. Boshlang'ich ta'limga davlat ta'lim standartining belgilanishi shu bosqichda ta'lim mazmuni ko'lamini chegaralash, ta'lim sohalarini integrasiyalash imkonini beradi. Davlat ta'lim standartini belgilash boshlang'ich ta'lim mazmunini konseptual asosda tayangan holda modernizasiyalash (davrlar talablari nuqtai nazaridan yangilash)ni ko'zda tutadi.

Davrning dolzarb talablari va jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib boruvchi ta'lim tamoillariga asoslanib, jahon tajribasiga tayangan holda O'zbekiston Respublikasidagi boshlang'ich ta'lim tayanch o'quv rejasi doirasiga ona tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta'lim sohalari kiritildi.

Ona tili ta'lim sohasi:

Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrini og'izaki bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqatda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Ona tili ta'lim standarti ko'rsatkichlari bolaning fikrlay olishga, ifodalangan fikrini anglashga va o'z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon qila olishga o'rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'lim sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar quyidagi uch parametrlilik standart o'lchovi orqali aks ettiriladi: O'qish texnikasi, o'zgaralar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O'qish texnikasi *bolaning savodxonlik, yozma nutq belgilarini talaffuzda almashtirish ko'nikmasini aniqlash* maqsadida kiritilgan. Bu parametr orqali o'quvchining notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi.

Bunda miqdoriy ko'rsatkich sifatida ifodali o'qish tezligi, ya'ni minutga berilgan matndan nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi olingan. Sinfdan-sinfga o'tish bilan miqdoriy ko'rsatkichdagi belgilar soni oshishi bilan birga berilgan matnni o'qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

Matn mazmunini anglash, o'zgalar nutqini eshitish va fikrini anglash *malakasi bolaning og'izaki fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida* kiritilgan. Bu parametrlarning ko'rsatkichlari o'quvchi o'n minutda qancha sahifa matnni o'qishi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qilish darajasini aniqlaydi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, *ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda* aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi;

- fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- fikrlash mavzuning murakkablik darajasi (soda, murakkab tavsifning mavzuga muvofiqligi va tavsifning qiymati);
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
- imloviy (yozma) savodxonlik.

II BOB. Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullarining amaliy shakl va metodlari


2.1. Savod o'rgatish davrida qo'llaniladigan noan'anaviy o'qitish metodlari tavsifi

Ta'lim tizimini isloh qilishda «Ta'lim to'g'isida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur hujjatlarda ta'lim tizimini bosqichma bosqich yangilash, xalqaro talablar asosida Yangi turdagi ta'lim muassasalarini yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. «Biz nafaqat siyosiy jabhani, balki iqtisodiyotni ham, ijtimoiy hayotni ham, ma'naviy-axloqiy sohani ham isloh qilishimiz zarur. Bu g'oyat keng ko'lamdagi islohotlar bo'lib, biz ularni kompleks tarzda hal qilish orqaligina o'z maqsadlarimizga erisha olamiz» - deb ta'kidlagan edi yurtboshimiz Islom Karimov. Yangicha ta'lim tizimini qurish, pedagogik jarayonga Yangi ta'lim texnologiyalarini kiritish, o'quvchi-yoshlarni, talabalarni mustaqil, ijodiy ishlashga, erkin fikrlashga o'rgatish, pedagogik jarayonlarda noan'anaviy, qiziqarli, faol innovation usullarni qo'llashni hozirgi kun talabi taqozo qilmoqda. Xo'sh pedagogik jarayonlarda bu usullardan qanday foydalanish kerak? Noan'anaviy, qiziqarli, faol, innovation usullarning qanday turlari mavjud? Mazkur savollarga beriladigan javoblar ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga oid dolzarb muammolarni hal etishga yordam beradi.

O'qitish jarayonlarida noan'anaviy ta'lim usullaridan: «Konferensiya darsi», seminar darsi, «Aralash darslar», «O'yinchoqlar yordamida dars o'tish», «Kasbga bog'lab dars o'tish», «Badiiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish», «Evrika(o'ylab top)»; ta'limning qiziqarli faol usullaridan: «Kichik va katta guruhlarda ishlash», «Roli o'yinlar», «Sahna ko'rinishi», «Krossvordlar echish», «Zakovat savollari», «test sinov topshiriqlari», «Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o'tish», «Sinkveyn o'yinlari»; shuningdek, ta'limning innovasion (yangi) usullari» Modifikasiyalashgan ta'lim», «Improvizasiya», «Aqliy hujum», «Debat», «tang'qidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul», «Klaster usuli», «Muammoli vaziyat», «Muayyan holat, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish», «Har kim harkimga o'rgatadi», «Nuqtai nazaring bo'lsin», «Multimedia vositalaridan foydalanish» va boshqalarni qo'llash muhimdir.

Ta'lim jarayonida noan'anaviy, qiziqarli, faol, innovasion usullardan foydalanish samarali tizim sifatida quyidagi shakllarda o'z ifodasini topgan (2.1.-shakl).

2.1.-shakl




Ta'limning innovasion usuli bo'lgan «**Modifikasiyalashgan ta'lim**» - shakli o'zgartirilgan ma'ruza bo'lib, talabalar bilan muloqot tarzida olib boriladi. Afzalligi shundaki, talabalar o'z ustida mustaqil, ijodiy ishlaydilar. Dars jarayonida faol ishtirok etadilar. Talabalar yangi mavzuni o'qituvchi bilan birgalikda tahlil qiladilar.

Improvizasiya – tayyorgarliksiz bayon etish usuli bo'lib, o'qituvchi talabalarga savol yoki topshiriq beradi va darhol uning javobini tayyorgarliksiz tushuntirib berishlarini so'raydi. Bu usulning afzalligi shundaki, talabalar o'z shaxsiy fikrlariga, dunyoqarashiga ega bo'ladilar, ularning og'zaki nutqi rivojlanadi, har bir savol-topshiriqlarni xotirada tez-tez tahlil qila olish ko'nikmalari shakllanadi.


Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning asosini tashkil etadi. Boshlang'ich ta'limda asosiy davr savod o'rgatish davri hisoblanadi. Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga tovush va harflarni qay darajada singdirish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Hozirgi davr talabiga asosan har bir pedagog o'z mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil yetishi taqozo yetiladi. Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z mashg'ulotlarida o'quvchilarga chuqur bilim berishi uchun innovasion metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Quyida biz savod o'rgatish davrida «Improvizasiya» metodini turli ko'rinishlaridan namunalar keltirmoqchimiz.


Bu metod «Klaster» metodining aksi bo'lib, turli o'xshash fikrlarni bir fikrga jamlashdan iborat. Masalan, doskaga «anjir» so'zini yozib, qaysi harf bilan boshlanishi so'raladi. Yana «anor», «archa», «arra», «ana» so'zlari ham yoziladi va qaysi harf bilan boshlanishi o'quvchilardan so'raladi. O'quvchilar barcha so'zlarni «A» harfi bilan boshlanishini aytadi. O'qituvchi yozilgan so'zlarning barchasini o'rtadagi «A» harfi bilan tutashtiradi yoki «A» atrofiga jamlaydi:



Yoki yana bir namuna



Bo'g'inlarni ham o'rtağa jamlab, so'z hosil qilish mumkin. Bu ham «Iprovizasiya» metodi hisoblanadi.



Yuksak darajadagi aqliy va ijodiy harakatni talab qiladigan “Aqliy hujum” metodini o'tkazishdan oldin metodni o'tkazuvchi qatnashchilar uchun etarli darajadagi qulay tashqi muhitni yaratish lozim bo'ladi: ularni qulay joyga o'tkazadi, xonani shamollatadi, sokin musiqadan foydalanadi, g'oyalarning generatorlariga o'fe yoki salqin ichimliklar ulashadi va hokazo. Qatnashchilarning aqliy va emocional holatini ko'tarish uchun “Aqliy hujum” rahbari etarli darajada erkin va demokratik holda auditoriya bilan muomila qiladigan bo'lmog'i lozim. Aqliy toliqishni oladigan psixologik mashqlarni o'tkazish mumkin. Masalan, maxsus bo'limlar talab qilinmaydigan masala yoki vaziyatlarni echish mumkin.

Shundan keyin “Aqliy hujum” metodini o'tkazishning bevosita shartlariga o'tish mumkin bo'ladi. ekranda: - maqsadlar: reja va qoidalar aks ettiriladi.

Bu tadbirlarga amalga oshirishga 10 daqiqagacha vaqt talab qilinadi.

“Aqliy hujum” metodining shiorini tanlash. Iloji boricha “Aqliy hujum”ning shioridan foydalangan ma’qul. Chunki aynan shu shior mutaxassislar komandasini g’oyalarning tezlik bilan tug’ilishiga jalb qiladi. Metodni o’tkazuvchi ekranda bir qancha shiorlarning variantlarini tavsiya qiladi. Masalan,


1. *Biz masalani echamiz va muammolar qolmaydi!*
2. *Muammo o’ta murakkab, biz uni hal qilamiz!*
3. *Har qanday muammo yagona to’g’ri echimga ega. Agar biz uni topolmasak dahshat bo’ladi!*
4. *Har qilinmagan muammo asabni taranglashtiradi, kayfiyatni tushiradi, vijdonni qiynaydi. Vahima bizga yarashmaydi!*
5. *Muammolarni hal qilish ko’nikmasini shakllantiramiz!*

“Klaster” metodi. “Klaster” (g’uncha, bog’lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo’lib, u o’quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o’ylash va shaxsiy fikrlarni bimalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g’oyalar o’rtasidagi aloqalar to’g’risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob’ektga yo’naltirilmagan fikrlash shakli sinaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog’liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o’quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o’zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo’lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Stil va Stil g’oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster” metodi puxta o’ylangan strategiya bo’lib, undan o’quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlar jarayonida foydalanishi mumkin. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg’ulotlarda o’quvchilar tomonidan bildirilayotgan g’oyalarning majmui tarzida namoyon bo’ladi. Bu esa ilgari

surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi.




“Klaster” metodining qoidalari

“Qarorlar shajarasi” (“Qarorlar qabul qilish”) metodi

“Qarorlar shajarasi” metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o`zlashtirish, ma`lum masalalarda har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to`g`risini topishga yo`naltirilgan texnik yondashuvlar. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda

qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bor tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh o`quvchilari ishtirokida qo`laniladigan “Qarorlar shajarasi” bir necha o`n nafar o`quvchilarning bilimlarini darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta`lim jarayonida mazkur metodning qo`llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o`quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg`ulot jarayonida o`quvchilar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to`ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadilar):



“Qaror shajarasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo`laniladi:

1. O`qituvchi mashg`ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.
2. O`qituvchi o`quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilish, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.
3. Qaror qabul qilish jarayonida guruhlarining har bir a`zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari


batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh aʼzolari bir toʻxtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga etgach, har bir guruh aʼzolari oʻz guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda oʻqituvchi rahbarligida barcha oʻquvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar.


Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tugʻilgudek boʻlsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan boʻlsa, oʻqituvchi buning sababini izohlaydi.

Savod oʻrgatish davrida «Klaster» metodidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Misollar keltiramiz:




Yoki boshqacha namunasi:



«Klaster» metodini savod o'rgatish davrida faqatgina harf, tovush, bo'g'inlar va so'zlar uchun yemas, tovush va harflarni o'rgatishda rasmlardan ham tuzsa bo'ladi.

Masalan:



Xullas, savod o'rgatish davrida innovasion metodlardan foydalanish o'quvchilarning savodxon bo'lishlarida, DTS talablarida qo'yilgan bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli yegallashlarida muhim ro'l o'ynaydi.

2.2. Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullariningdan foydalanishning shakl, metod va vositalari.

Savod o'rgatish juda muhim mas'uliyatli va ayni vaqtda o'quvchining yesida bir umr saqlanib qoladigan sharaflı davr hisoblanadi. Keyingi sinflarda beriladigan bilimlar o'quvchi tomonidan muvaffaqiyatli o'zlashtirilib olinishi ham bevosita yozma va og'zaki nutqiy ko'nikmalarning qay darajada rivojlanganligiga bog'liq. Shuning uchun ham yoshlarni o'qitish va ularni hayotga tayorlashda savod o'rgatish mashg'ulotlariga alohida e'tibor beriladi. Har bir tovush –harfning talaffuz qilinishi va yozilishini mukammal o'zlashtirib olishlari uchun hilma- hil mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirish o'quvchida mustaqil fikrlash va ijodiy ishlash ko'nikmasini shakllantirishga bog'liq. Savod o'rgatish davrida qo'llaniladigan grammatik o'yinlar o'quvchi imkoniyatlarini to'la ishga solish, har bir tovush va harfning yeng nozik tomonlariga alohida diqqat bilan qarashga undaydi. Bu davrda qo'llaniladigan grammatik o'yinlar ham hilma-hil bo'lib , o'quvchiga bilim berish, uni toliqishdan saqlash , o'zi bajargan ishdan zavqlanish imkoniyatini yaratadi . 1-sinf bolalariga bilim berish o'yin asosiga qurilsa samarali natijalarga yerishish mumkin . Bu yoshdagi bolalarni toliqtirmaslik , o'qish va yozuv darslarini qiziqarli tashkil yetish , sidirg'ali o'qish, husnixat malakalarini shakllatirish va mustahkamlash uchun yozuv mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilsh ,o'yin shaklida uyushtirish zarur . O'quvchilar bilan grammatik o'yinlar uyushtirilar yekan , ularga barcha o'quvchilarni to'g'ri va chiroyli yozuvda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yadigan o'quvchilarni ko'proq jalb qilish kerak . Savod o'rgatish davrida qo'llaniladigan grammatik o'yin turini tanlashda sinf o'quvchilarning hususiyatlari, qiziqish va imkoniyatlarini hisobga olish lozim. Respublikamiz maktablarida mehnat qilayotgan ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilari birinchi sinf o'quvchilarini savodga o'rgatish jarayonida foydalanish

uchun ko'plab didaktik o'yinlarni ijod qildilar. Ulardan dars jarayonida foydalanib yaxshi natijalarga yerishmoqdalar.⁷

Boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetikadan bir qator bilimlarni yegallaydilar. Unli, undosh tovushlarni talaffuz qilish va taqqoslash asosida farqlaydilar. Undosh tovushlarning jarangli va jarangsiz talaffuz yetilishi, jufti bor va jufti yo`q jarangli va jarangsiz undosh tovushlar haqida amaliy bilim oladilar. Bu borada boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan tekshirish metodi tovushlarning jarangli yoki jarangsiz ekanligini anglab olish imkonini beradi. Bu o'z navbatida to'g'ri yozishda qo'l keladi. Shuningdek bu sinflarda bo'g'in va uning turlari, urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar, tovushlarning bir-biriga ta'siri haqida amaliy bilim oladi. Bularning barchasini o'zlashtirib olish bir qator murakkabliklar tug'diradi. Shu tufayli boshlang'ich sinflarda fonetikaga oid didaktik o'yinlardan foydalanish qo'l keladi.

“ So'z tuzish “ o'yini .

O'yin savod o'rgatish davrida o'tkaziladi . Bu o'yinlarni bajarish o'quvchilarga tovushning so'z hosil qilishidagi ahamiyatini to'laroq tushunib olish imkonini beradi. O'quvchilar ushbu o'yinda ishtirok yetar yekan, so'zlarning turli-tuman usullar bilan hosil bo'lishi katta qiziqish uyg'otadi. O'zlari hosil qilgan yangi so'zlardan bevosita zavq olishga muvaffaq bo'ladi. So'z tuzish o'yini savod o'rgatishning tarkib –tahrir (analitik –sintetik) tovush metodi asosida bajariladi. Ushbu metodning ikkinchi qismi tuzish ,qurish ,birlashtirish singari ma'nolarni bildiradi. So'z tuzish o'yini ham aynan so'zga hilma-hil tovushlarni, bo'g'inlarni qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bu o'yinni bajarishda so'zga turli hil usullar bilan tovush qo'shib yangi so'z hosil qiladi.

So'zning boshiga bir tovush qo'shib yangi s o'z hosil qilish o'yini .

Bu o'yinning talabiga asosan o'quvchi ma'lum bir olingan so'zning boshidan bir tovush qo'shib yangi so'z hosil qiladi. Ba'zi undosh bilan boshlangan

⁷ Bu haqda qarang :Safarova T. va b. Savod o'rgatish darslari,T.” Ma'naviyat” 2003y.

soʻzdan avval unli tovushni qoʻshish yoki unli bilan boshlangan soʻzdan oldin undosh tovush qoʻshish orqali yangi soʻz hosil qilinadi.

<i>Son - o +son</i>	<i>oʻlka- <u>yo</u>ʻlka</i>
<i>ola - <u>l</u>ola</i>	<i>ota -<u>b</u>ota - <u>n</u>ota</i>
<i>ayiq- <u>q</u>ayiq</i>	<i>or- <u>b</u>or - <u>t</u>or</i>
<i>oʻroq - <u>s</u>oʻroq</i>	<i>osh - qosh- <u>m</u>osh .</i>

Ushbu oʻyinda ayrim soʻzlarga tovush qoʻshish orqali bitta soʻz hosil qilish mumkin boʻlsa (son- oson) , baʼzi soʻzlardan bir qator soʻzlar tuzish mumkin. Oʻyinni butun sinf bilan ham, oʻquvchilar guruhlarida tuzib musobaqa tarzida ham oʻtqazish mumkin.

“Soʻzning oxiriga harf qoʻshib yangi soʻz hosil qilish “oʻyini .

Oʻyinni oʻtkazish tartibi soʻz tuzish oʻyinlari bilan deyarli bir hil. Bunday soʻzlarni hosil qilishda baʼzan bir harf bilan ifodalangan soʻz yasovchi qoʻshimchalar ham ishtirok yetadi. Savod oʻrgatish davrida ushbu oʻyin oʻtkazilsa, soʻz yasovchi qoʻshimchalar haqida malumot berish talab qilinmaydi. Oʻquvchilar bu davrda soʻzning tarkibi va soʻz yasash haqida bilimga yega yemaslar. Chunki boshlangʻich sinf oʻquvchilari ona tilini koʻproq amaliy oʻrganishadi. Ana shu davrda hosil qilingan koʻnikmalar keyingi sinflarda soʻz tarkibini oʻrganishgandan keyin yasovchi qoʻshimchalar sifatida oʻrganiladi. Oʻyinni boshlashdan oldin oʻqituvchi bir, ikki misol orqali oʻyinning tartibini tushuntiradi.

<i>Aziz -Aziz<u>a</u></i>	<i>togʻ - togʻ<u>a</u></i>	<i>sayla - saylov</i>
<i>Nur - nur<u>a</u>,</i>	<i>yelka - yelka<u>n</u></i>	<i>xol-xol<u>a</u></i>
<i>olti -oltin</i>	<i>varaq - varaqa</i>	<i>ot- ot<u>a</u></i>
<i>tol- tol<u>a</u></i>	<i>koʻz -koʻza</i>	<i>ola -olam</i>

Sinf oʻquvchilari ikki guruhga boʻlinib xattaxta ham shuncha qisimga ajratiladi. Har bir guruh topgan soʻzini xattaxtaning oʻziga tegishli qismiga yozib boradi. Koʻp soʻz topgan guruh gʻolib hisoblanadi. Oʻyinni butun sinf oʻquvchilari bilan ham oʻtkazish mumkin. Maʼlum vaqtdan keyin oʻyin yakunlanadi. Yeng koʻp soʻz topgan oʻquvchi gʻolib hisoblanadi va ragʻbatlantiriladi.

So'zning o'rtasiga harf qo'shib yangi so'z hosil qilish o'yini.

So'z tuzish o'yinining bir turi so'zning o'rtasiga bir harf qo'shib yangi so'z hosil qilish hisoblanadi. O'yin ko'pincha ikki bo'g'inli so'zlar bilan o'tkaziladi. Ikki bo'g'inli so'zning o'rtasiga undosh tovush qo'shish orqali yangi so'z hosil qilinadi. Ushbu o'yin o'quvchilarning ziyrakligini oshiradi. O'zbek tili leksikasidagi so'zlarning ma'no jihatidan farqini anglab oladi. O'quvchining so'z boyligi oshadi. O'yin shartini bajarish uchun ixtiyoriy diqqati to'la ishga tushadi. O'yinni boshlashdan oldin o'qituvchi bir, ikki so'zni xattaxtaga yozib tushuntirib beradi.

sara - sayra , zira - ziyrak

O'yin davomida o'quvchilar quyidagi so'zlarni topishlari mumkin.

Tana—

ko'mak –ko'lmak

qatiq- qattiq

qara- qayra

mashoq- mashshoq

ula - ushla

pila - pilla

tola -toshla

sila - siyla

baroq – bayroq .

ola - olma

nola –Noila

xola - xolya

bota- bolta

tana -tashna

tila –tilla

tara -tarqa

biron - biyron

amal - Akmal


tala– tanla

ona - oyna .

Ushbu o'yinni boshlang'ich sinflarning yuqori sinflarida hamda 5-7 sinflarda o'tqazsa bo'ladi. Yuqori sinflarda qo'shimcha topshiriq berish orqali o'yin murakkablashtiriladi.

“Bir tovushi mendan qolgani sengan “ o’yini

Bu o’yin ham so’zning boshiga tovush qo’shib yangi so’z hosil qilish o’yiniga o’xshaydi. U bolalarning faolligini oshiradi, zehnni o’tkirlaydi. Uni barcha o’quvchilar ishtirokida o’tkazsa ham, parta qatorlari orasida o’tkazsa bo’ladi. Har bir bo’g’inga qancha so’z topishi kerakligini o’qituvchi belgilaydi. O’yin ohirida faol qatnashgan o’quvchilar va g’olib guruh rag’batlantiriladi.



Bo’g’inlarning o’rnini almashtirib yangi so’z tuzish o’yini.

Ushbu o’yin o’quvchilarning qiziqishlarini oshiradi. Bolalar o’yinni juda berilib bajarishadi. O’quvchilar bo’g’inlarini almashtirib yangi so’z hosil qilish o’yini orqali so’zning leksik –semantik ma’nosi ustida kuzatish olib boradi. O’yin ko’proq ikki va undan ortiq bo’g’inli so’zlardagi bo’g’inlarning o’rnini almashtirish orqali olib boriladi. Bunday so’zlar ko’proq qo’shma otlar mavzusi bilan bog’liq bo’ladi. Ba’zan qo’shma ot tarkibidagi har bir bo’g’in bir so’zga ma’no jihatidan teng bo’lib, ularning o’rnini almashtirib qo’llash o’zbek tilidagi yangi qo’shma otlarni hosil qiladi. Bu o’yindan boshlang’ich sinflarning savod o’rgatish davridan boshlab, o’rta maktablarning yuqori sinflarida ham foydalanish mumkin. O’yinni boshlashdan oldin o’qituvchi quyidagi namunani xattaxtaga yozib tushuntiradi.

Gulnor - Norgul , Urchuq - Chuqur.

O'quvchilar bilim darajasiga qarab quyidagi so'zlarni topishi mumkin.

Alisher –Sherali ,

Gulchehra - Chehragul .

Xoldona –Donaxol

Mehrnoz - Nozmehr .

To'raboy –Boyto'ra

Guldasta – Dastagul .

Oyshahar – Shaharoy

kabi.

Toshto'xta- to'xtatosh.

Oybahor- Bahoroy.

Joylarni almashtirish o'yini.

Bu o'yinni alifbegacha bo'lgan davrda va undan keyin ham o'tqazish mumkin. O'quvchilarning sinchkovligini , ye'tiborini oshiradi. Bolalarni harflar va tovushlar ustida o'tkaziladigan o'yinlarga tayyorlaydi. O'yinga 10- 15 o'quvchi qatnashadi. Barcha o'quvchilar bir qator bo'lib turishadi. Oralaridan biri boshlovchi bo'ladi. Boshlovchi barcha o'quvchilarni 30 soniya davomida kuzatib orqaga o'giriladi. Shu davrda bolalardan ikkitasi o'z joylarini almashtirishadi. boshlovchi o'quvchi o'quvchilarga yuzlanib kimlar joyini almashganliklarini aytadi. Agar to'g'ri aniqlasa joylarini almashgan o'quvchilardan biri boshlovchi bo'ladi. Yangilishib aniqlay olmasa , yana o'zi boshlovchi bo'lib qolaveradi. ⁸

PAR ETDI O`YINI

Bu o'yinni quvnoq daqiqada o'tkazish mo'ljallangan. «Par yetdi» o'yini o'qituvchi boshchiligida o'tkaziladi. O'qituvchi qush va boshqa uchadigan narsalarning nomini aytadi, bolalar «**par etdi, par etdi**» deb qo'llarini baland ko'tarib pastga tushiradilar. O'yin o'rindan turgan holatda o'ynaladi. Qushdan boshqa narsa nomi aytilganda bolalar cho'kkallab o'tirib turadilar va ketdi, ketdi deb aytadilar. Bu o'yin bolalarni zukkolikka, topqirlikka, hozirjavoblikka o'rgatadi. **'R'** tovushi talaffuzida qiynaladigan bolalar uchun ham juda foydali. Qushlar turini bilib olishlarida , lug'at boyliklarining o'sishida katta ahamiyatga yega. O'yin alifbegacha bo'lgan davrda o'tkazilib o'quvchilarni kerakli so'zlarni

⁸ «Bilimdon» o'quvchilar uchun oylik jurnal. 2006yil 3 Farg'ona. «Farg'ona press» masuliyati cheklangan korxona.

matndan ajratib olishga o'rgatadi va kelgusidagi grammatik o'yinlarga tayyorlaydi.²

KIM SO'Z TOPADI O'YINI.

Bu o'yin qatorlararo musobaqa tarzida o'tkazilishi ham mumkin. G'olib qator rag'batlantiriladi. Sinf bolalari to'rt guruhga bo'linadi. Har biriga alohida topshiriq beriladi.

1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh
<i>Osh</i>	<i>bosh</i>	<i>Obbo</i>	<i>Bino</i>
<i>Ol</i>	<i>tosh</i>	<i>Bobo</i>	<i>havo</i>
<i>Ot</i>	<i>shoh</i>	<i>Dono</i>	<i>navo</i>
<i>Og'a</i>	<i>bos</i>	<i>Momo</i>	<i>sado</i>
<i>Opa</i>	<i>son</i>		

Yuqoridagi o'yinda har bir guruh "O" tovushi turli o'rinlarda kelgan bir va ikki bo'g'inli so'zlar topishadi. 1- guruh so'z boshida, 2-guruh so'z o'rtasida, 3-guruh so'zning ikkala bo'g'inida, 4-guruh yesa so'z ohirida kelgan misollarni topishadi. Ushbu o'yinni berilgan " N n" harfi ishtirokida ham o'tkazish mumkin. Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadi. Berilgan" N,n" harfi ishtirokida o'qituvchi har bir guruhga alohida topshiriq beradi.

1-qator	2-qator	3-qator
<u>N</u> harfi so'z boshida kelgan so'zlar topadi.	N harfi so'z o'rtasida kelgan so'zlar topadi.	N harfi so'z ohirida kelgan so'zlar topadi.

<i>non</i>	<i>xona</i>	<i>osmon</i>
<i>nega</i>	<i>sana</i>	<i>Oson</i>
<i>narvon</i>	<i>ona</i>	<i>yelkan</i>
<i>norin</i>	<i>angishvona</i>	<i>xotin</i>
<i>nay</i>	<i>otxona</i>	<i>otin</i>

noma

chana

tutun

nina

yana

butun

Bu o'yin "Alifbe"dagi barcha tovushlarni o'rganish davomida o'tkaziladi. U o'quvchilarning topqirligi, zukkoligi va hozirjavobligini o'stiradi. Lekin o'quvchilar bu so'zlarni yozolmaydilar. Alifbening dastlabki davrlaridan kiritlsa, bolalar keyingi darslarda faol bo'lib qolishadi. O'quvchilar yozish va o'qishni bilib olganlaridan keyin uni xattaxtaga va daftarlariga yozdirish mumkin.

"TOPA OLASIZMI?" o'yini.

O'qituvchi o'rganilgan va o'rganilmagan harf va bo'g'inlar ishtirok yetgan bir necha so'zni kattalashtirib yozilgan nusxalarini sinf xattaxtasiga ilib qo'yadi. O'quvchilar so'zlar tarkibidan o'rganilgan harf va bo'ginlarni topib xattaxtaga yozadilar. Bu o'yinni alifbe davrining birinchi -ikkinchi bosqichlarida o'tkazish yaxshi natija beradi. Chunki shu vaqtda o'quvchilar tovush va harflar bilan yaqindan tanishib boradi. Ular o'qish va yozish ko'nikmalarini yegallay boshlaydi.

"O'QIY OLASIZMI" o'yini.

O'qituvchi xattaxtaga karton qog'ozga yozilgan ola, oila, Noila so'zlarini osib qo'yadi. 5-6 o'quvchiga so'z o'qitilgach, so'zlar bo'g'inlarga bo'linib **L** harfining o'rni ko'rsatiladi. So'zlarni bo'g'inlab o'qishda har bir bo'g'in bitta qarsak bilan ko'rsatiladi.

o-la

o-i-la

No-i-la

o	l	a
---	---	---

o	i	l	a
---	---	---	---

N	O	i	l	a
---	---	---	---	---

Bu o'yinni yana bir qator tovushlarni o'rgatish jarayoniga tadbqiq qilsa bo'ladi. O' harfini o'rganganda Mo'min, o'roq, o'tkir, ro'mol, o'rdak, to'ti, to'lqin, so'zlarini o'rgatish barobarida 'o'qiy olasizmi' o'yinini o'tkazish mumkin.

SO'Z TOP O'YINI. (DIDAKTIK O'YIN.)

Omon , makaron , momiq kabi soʻzlarni oʻqituvchi aytadi. Oʻquvchilar kesma boʻgʻinlardan berilgan soʻz tarkibidagi m harfi qatnashgan boʻgʻinni topadilar. ma-, -mon, -mo, -ma, -moʻ. Shu boʻgʻinlar asosida yangi soʻzlar tuzish topshiriladi.

Oʻquvchilar topish mumkin boʻlgan soʻzlar.

<i>-ma</i>	<i>-mon</i>	<i>-ma</i>	<i>-mo</i>
<u>mana</u>	<u>omon</u>	<u>nima</u>	<u>omonat</u>
<u>mashina</u>	<u>tomon</u>	<u>naima</u>	<u>momo</u>
<u>Malika</u>	<u>kamon</u>	<u>olma</u>	<u>xurmo</u>

SIRLI KATAKLAR OʻYINI

Oʻqituvchi koʻrgazmani koʻrsatib, kerakli harflarni qoʻyib soʻzlarni oʻqishni aytadi. Bunday koʻrgazmalar alifbe kitobining hamma mavzusida bor.kitobning sahifalarida oʻrganilayotgan tovush va harf bilan bogʻliq narsa –buyumlarning rasmi berilgan. Shu rasmlarning ostiga katakchalar ilova qilingan. Katakchalar soni harflar soniga teng boʻlganligi oʻquvchilarning oʻyinni toʻgʻri bajarishiga yordam beradi.

o	l	-	m	a
---	---	---	---	---

k	i	-	t	o	b
---	---	---	---	---	---

Bu oʻyinni uyushtirishda oʻquvchilar guruhiga ikki-uchtadan shunday topishmoqlar beriladi.

“Soʻzni tuzib yoz” oʻyini.

Bu oʻyin maʼlum bir tovush va harf haqida oʻquvchilar bilim olganlaridan keyin oʻtkaziladi. Oʻqituvchi tomonidan oʻrganilgan tovush qatnashgan soʻzlarni xattaxtaga yozma harflar bilan yozib qoʻyiladi. Oʻyin ishtirokchilari bu soʻzlarni kesma boʻgʻinlar yordamida xattaxtaga terib chiqadi. Oʻqituvchi aytgan tovush soʻzning qaysi oʻrnida kelayotganini aniqlaydilar. Oʻtilgan L,l harfi haqidagi bolalarning bilimini mustahkamlash uchun *oila, opa, ana, tola, Lola, Ali,* soʻzlarini yozib qoʻyadi. Oʻquvchilar shu soʻzlarni kesma boʻgʻinlar yordamida

o	l	-	m	a	-	x	o	n
---	---	---	---	---	---	---	---	---

xattaxtaga terib l tovushi

so'zning qayerida kelayotganligini aniqlaydi. D ,d tovushi va harfi o'tilganda *Odil, Madina, Dildora, dala, dada, adab* so'zlari ustida ham shunday o'yin uyushtirish mumkin.

“Bo'g'inlardan so'z tuzish” o'yini.

Xattaxtaga yozma harflar bilan *oila, ona, ana, tola, Lola, Ali* so'zlari yozib qo'yiladi. O'quvchilar kesma bo'g'inlar yordamida shu so'zlarni yozadilar. *L* tovushi so'zning qayerida kelayotganini aniqlaydilar. *L* tovushi qatnashmagan so'zlaning aralashtirilib berilishi o'quvchilar diqqatini orttiradi. Bunday o'yinlarni boshqa harflarni o'rganish davomida ham qo'llash mumkin. *D* harfini o'rganish jarayonida *Odil, Madina, Dildora, dala, dada, odob* singari so'zlarni kesma bo'g'inlar yordamida yozish mumkin. Birinchi bo'lib yozib bo'lgan o'quvchi o'yin g'olibi hisoblanadi va rag'batlantiriladi.

Kun va tun o'yini.(K tovushi.)

O'qituvchi *uka* so'zini alohida yozib, bolalarga: “So'zni ko'rib olib, ko'zingizni yuming”,- deydi va u harfini a harfi bilan almashtirib: Yendi ko'zingizni oching, so'zda qanday o'zgarish bo'lganini ayting ; - deydi. Bolalar *u* harfi *a* harfi bilan almashtirilganini natijada so'z ma'nosi o'zgarganini, aka so'zi paydo bo'lganini aytadilar. Bu o'yin 1-2 marta o'tkazilgach so'zlarning soni ko'paytirilishi, murakkablashtirilishi mumkin. *bola- bolg'a, ko'kat –ko'mak, sovuq- tovuq.* Kun va tun o'yinini har xil shakllarda o'tkazish mumkin.

So'z tuz o'yini.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga mos bo'lgan qo'lda ishlashga qulay bo'lgan buyum (kichik kartochka) tanlanadi. O'qituvchi so'zning birinchi bo'g'inini aytib qo'lidagi koptokchani birinchi o'quvchiga beradi. Masalan : ol. Koptokchani olgan o'quvchi xohlagan gap bo'g'inini qo'shib so'z hosil qiladi. : - ta. Olma. Keyin novbatni ikkinchi o'quvchiga beradi. Koptokchani uning qo'liga berish bilan so'zni davom yettirish imkoniyatini unga topshirganini bildiradi. – xon.

Olmaxon o'quvchi tomonidan xattaxtaga tuzilgan so'zning andozasi chiziladi.

da	-	la	-	lar
----	---	----	---	-----

Harflarni tanlab so'z tuz.

Xattaxtaning oldingi qismiga bir hil kattalikdagi harflar kartatekasi terib qo'yilgan. Ularda aralash berilgan harflar ishtirokida *Lola*, *bobo*, *kitob*, so'zlarini tuzish talab qilinadi. Ushbu harflar uch hil rangdagi kartonga yoziladi. Harflarni yendi tanib olayotgan o'quvchilarga mo'ljallanadi. O'quvchilar dastlab o'qituvchi topshirig'iga asosan 1-bola *yashil* rangdagi, 2-o'quvchi *sariq* rangdagi 3-o'quvchi ko'k rangdagi; harflarni tanlaydi. O'zlari to'plagan harflarni ma'lum bir tartibda joylashtirib chiqib

b	o	b	o
---	---	---	---

L	o	l	a
---	---	---	---

k	i	t	o	b
---	---	---	---	---

so'zlarini yozadi. Ba'zan xattaxtaga chiqqan o'quvchi so'zni tuza olmasa, o'z qatoridan boshqa o'quvchi chiqib to'g'irlashi mumkin. Bu o'yin o'quvchilarning kuzatuvchanligini oshiradi.

Bo'g'inlarni aniqlash o'yini.


Bu o'yin Respublikamiz maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida keng tarqalgan. Alifbening dastlabki kunlaridan boshlab o'qituvchi bolalarni so'zni bo'g'inlarga ajratishga o'rgatadi. Buning uchun o'pkadan kelayotgan har bir

havo oqimining bir zarb bilan chiqishidan hosil bo'lgan tovushlarni ajratib talaffuz qiladi va bittadan qarsak chaladi.

Ol-ma, ol-ma –xon, ol –cha , tul- ki, i –lon, ik-ki, oy- mo- mo, ki-tob, mak-tab-ga. Bu o'yin alifbening birinchi bosqichida uzluksiz o'tqazib borilsa, bolalar organib olishadi. O'zlari maktabda ham, uyda ham bu mashg'ulotlarni sevinib bajaradi. Ba'zan oquvchilar bir tovushdan iborat tovushlarni bo'g'inga bo'lishda ikkilanib qoladi. O'qituvchi unli va undosh tovushlarni tushuntiradi. Unli tovushlarning bo'g'in hosil qilishdagi roli ko'rsatiladi. O'yinni o'tqazish uchun unli tovushlar orasiga **t** tovushi aralashtirilib qo'yiladi. O'quvchilar unli tovushlar orasidan **t'** tovushini ajratib oladi. Unli tovushlarning og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramasligini aytadi. **t** tovushi yesa og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi va shovqin hosil qiladi. Ana shu jihati bilan **u** unli tovushlardan farq qiladi.

Jumboq rasm asosida matn tuzish.

O'qituvchi Alifbening 13-betidagi *ana, non, ni, in* kabi so'z va bo'g'inlar asosida tuzilgan krossvord- jumboqda bitta gap, ikkita so'z mavjudligini aytadi. Krossvorddagi strelka chiziqlar so'zni to'g'ri topib o'qishga yordam berishi tushuntiriladi. Bolalar krossvorddan *ona, ana, nina* kabi so'zlarni o'qiydilar. Ularni bir butun holda o'qisak o'quvchilarga tanish bo'lgan *ona, ana nina* gapi hosil bo'ladi. Ushbu o'yinni davom yettirib to'g'ri chiziqlar bo'yicha bo'g'inlarni qo'shib o'qisak yana qanday so'zlar hosil bo'ladi? O'quvchilar birin –ketin javob beradi. *Ni+na ona, ana*, sozlari hosil bo'ladi. *Nina* so'zini o'qishda o'qituvchi yordamlashib turadi.



Bo'g'inlarni birlashtir o'yini.

O'yinni uyushtirishda "Alifbe" va "Ona tili" kitobida berilgan bo'g'inlardan foydalaniladi. O'yinni butun sinf bilan yoki ikki o'quvchi, ba'zan to'rt o'quvchi ishtirokida uyushtirish mumkin. Buning uchun oldindan yigirma dona kichik kartochka tayyorlab qo'yiladi. Har bir kartochkadagi bo'g'inlardan o'ntasi kichik harf bilan, o'ntasi katta harf bilan boshlangan bo'lishi zarur. Kartochkalar aralashgan holda o'quvchilarga tarqatiladi. O'yinda ishtirok yetuvchilardan biri katta harf bilan boshlanuvchi bo'g'inni xattaxtaning quyi qismiga qo'yadi. Ikkinchi o'quvchi shu bo'g'inga mos kichik harf bilan boshlangan bo'g'inni yoniga qo'yadi. Natijada sinf o'quvchilaridan birining ismi kelib chiqadi. O'yin davomida bo'g'inni topib, o'z joyiga qo'ya olmagan o'quvchi o'z o'rnini bo'shatadi. Bu o'yin orqali o'quvchilar atoqli otlarning, xususan kishi ismlarining bosh harf bilan boshlanishini bilib olishadi. O'yindan namunalar:

Qir	+	miz	Dil	+	bar
No	+	dir	Sho	+	di
Ak	+	bar	Ra	+	sul


O'yin oxirida quyidagicha kishi ismlari hosil bo'ladi.

- | | | |
|----------|-----------|----------|
| 1.Qirmiz | 3. Dilbar | 5. Akbar |
| 2.Nodir | 4. Shodi | 6. Rasul |

Bir bo'g'ini mendan qolgan bo'g'ini sendan o'yini

Ushbu o'yin o'quvchilarning diqqatini va ziyrakliginin oshiradi. O'quvchi berilgan bo'g'inni o'qib, unga qanday tovush yoki bo'g'in qo'shib yangi so'z hosil qilish ustida faoliyat ko'rsatadi. O'yinning qiziqarliroq bo'lishi uchun so'z markazida turuvchi bo'g'in qavs ichida yoki aylana ichida berilsa yanada yaxshi bo'ladi. O'quvchining qiziqishi oshadi. Bo'g'inni tanlashda o'qituvchi yeng

kamida ikki uch soʻz tashkil qilish mumkin boʻlsa boʻgʻinni tavsiya yetishi zarur. Buni oʻqituvchi oldindan bilishi, oʻyin shartlarini bajarish usullarini oʻqituvchining oʻzi mukammal bilishi kerak. Keyinchalik oʻquvchilarning oʻzlari ham shunday jadval 1 tuzishiga oʻrgatiladi.



Boʻgʻinlardan gap tuzish oʻyini.

Bu oʻyinni uyushtirishda oʻquvchilarga boʻgʻinlar beriladi. Tavsiya yetilgan boʻgʻinlar ishtirokida soʻz va gaplar tuziladi. Ushbu oʻyinni uyushtirishda boʻgʻinlar majmuasini butun sinfga tavsiya yetish ham mumkin. Bolalarning qiziqishlarini oshirish maqsadida oʻquvchilarni ikki guruhga ajratib har bir guruhga alohida boʻgʻinlar beriladi. Qaysi guruh topshiriqni tez bajarsa oʻsha guruh gʻolib hisoblanadi. Boʻgʻinlar albatta tartib bilan yemas, aralash holda

berilishi lozim. O'yinni soddalashtirish maqsadida gapni qaysi bo'g'indan boshlash alohida rangda ko'rsatiladi.

Topshiriqlar.

I.

o

ha

ish

char

ta

ish

Ish ishtaha ochar

II.

mi

bi

baxt

rar

lim

kel

Bilim baxt keltirar.

III.

bi

g'i

tab

mak

cho

lim

O'

-

Maktab –bilim o'chog'i.

IV.

o

bi

va

la

lo

lan

gul

na

bo

-

lan

bi


Ona bilan bola- gul bilan lola.

BO'G'INLAR BEKATIDAN O'TIB OL O'YINI.


Bu o'yin o'quvchilarning bo'g'in ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Bolalar so'zlarning bo'g'inlardan tashkil topishini har bir bo'g'in hatto tovushning ham ma'lum bir vazifasi borlagini bilib oladi. Bu o'yinning muhim tomoni shundaki, markazdagi bo'g'in bir necha so'zlarning hosil bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar har bir bo'g'inga alohida ye'tibor berish ko'nikmasini yegallab olishadi. O'yinni butun guruh bo'yicha ham, guruhlar o'rtasida ham o'tkazish mumkin. Butun sinf ishtirokida o'tkazilganda xattaxtaning o'rtasiga bir bo'g'in doira ichiga yozilib shu bo'g'inning oldidan qo'shiladigan bo'g'inlar o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladi. Bolalar uni bo'g'in bekatidagi bo'g'in bilan

birlashtiradi. Keyin bekatning orqasidan bir bo'g'in qo'shib yangi so'z hosil qiladi. U quyidagicha o'tkaziladi.



berilishi



bajarilishi



O'yin guruhlar o'rtasida o'tkazilganda o'quvchilar guruhiga bittadan bo'g'in beriladi. Agar bolalar faol bo'lsa bekat oldidan bo'g'in berilmaydi. Masalan bir guruhga -li, ikkinchi guruhga -di bo'g'ini berilganda o'quvchilar uni quyidagicha bajarashi mumkin.



Qaysi guruh belgilangan vaqtda ko'p so'z topsa g'olib hisoblanadi.

“Bo'ginlar lotosi” bilan uyushtiriladigan o'yinlar.

O'zbek tilida qo'llaniladigan barcha bo'g'inlarni “bo'g'inlar lotosi” ga kiritib bo'lmaydi. Boshlang'ich sinflarda ko'p qo'llaniladigan asosiy bo'g'inlarni tanlab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'g'inlarni tanlashda undoshlarni asos qilib olib, barcha undoshlar bilan tuziladigan bo'g'inlarni olish yaxshiroq bo'ladi. Agar 6 unlini asos qilib olib, 23 undosh tovushni qo'shib bo'g'in tashkil qilsak bo'g'inlar soni juda ko'payib ketadi. “Bo'g'inlar lotosi” jadvalini tashkil qilishda 20 undosh tovush olinadi. Undosh va unlilar qo'shib bo'g'inlar hosil qilinadi va “Bo'g'inlar lotosi”ga ma'lum tartib asosida joylashtirib chiqiladi. Kvadrat usulidagi jadvaldan so'zlarni o'qish o'quvchilar uchun qulaylik tug'diradi. 20 ta

undoshning har biri bilan to'rttadan bo'g'in hosil qilinganda 80 bo'g'in to'planadi va ular jadvalga joylashtirib chiqiladi. Jadvalni tashkil yetishda yeni bir metrli, bo'yi yesa 80 sm karton qog'oz olinadi. Uning yenini 12 ga, bo'yini yesa 11ga bo'lish kerak. Shunda kataklar soni 126 taga yetadi, undan saksontasiga bo'g'inlar yoziladi. Yuqoridagi birinchi qator oltiga bo'linadi va har bir katakka bittadan unli harf joylashtirilib chiqiladi. Uning ostida yesa birdan o'ngacha raqamlar yoziladi. Jadvalning har ikkila tomonidan 1 dan 8 gacha raqam berilgan va yeng oxirida yesa yana 1dan 10 gacha raqam qo'yilgan. Bu raqamlar bo'g'inlarni tez topish uchun yordam beradi.⁹

Bo'g'inlarga bo'g'in qo'shib so'z hosil qilish o'yini.

Buning uchun o'qituvchi 1-sinf "Alifbe" va 1-2-sinf "Ona tili" kitoblaridan o'rin olgan so'zlarni hisobga olib, o'quv yili davomida vaqti-vaqti bilan grammatik o'yin tashkil qilib turishi mumkin. "Bo'g'inlar lotosi"dan o'rin olgan saksonta bo'g'in ishtirokida ko'plab so'zlar tuziladi. Shu narsa muhimki, o'qituvchi bolalarga tuzdiradigan so'zini, albatta avval tekshirib ko'rishi lozim. Yana bir tomoni muallimning o'zida o'quvchilar topishi lozim bo'lgan so'zlar yozib olingan bo'lishi zarur.

Bu o'yinni bajarish davomida o'quvchining ongida bo'g'inlar takrorlanib, shakllanib boradi. Masalan, Za-mi-ra so'zini topish uchun avval -za bo'g'inini bir necha marta takrorlash orqali izlab topadi, Keyin- mi va-ra bo'ginlarini ham xuddi shunday topadi. Bu bo'g'inlar uning xotirasiga singib boradi.

bo + la = bola

ish + la = ishla

So'zni kim tez topadi? o'yini

Bu o'yin ham "Bo'g'inlar lotosi" bilan o'tkaziladi. Avval o'yinning sharti tushuntiriladi. Sinfda partalar qatorining har biri bir guruhga bo'linadi. O'qituvchi tomonidan berilgan so'zlarni qaysi qator oldin topsa o'sha qator g'olib deb topiladi

va rag'batlantiriladi. Masalan, o'quvchilarga *bo-la, oldi, oshna, Malika, tola, Nazira, kema, otmadi* kabi so'z berilib ularni topish talab qilinganda qaysi parta qatoridagi bolalar berilgan so'zlarni tez topsalar o'sha qator g'alaba qozongan bo'ladi. Bu o'yinni uyushtirishda o'qituvchi xattaxtaga sinfdagi partalar qatorlarining olgan ballarini yozib boradi. Har bir so'zni aytib qaysi qatordagi bola birinchi qo'l ko'tarsa o'sha o'quvchi chiqariladi. Topshiriqni to'la va aniq bajargan o'quvchi o'z guruhi uchun belgilangan ballni oladi.

O'yinning ikkinchi varianti.

Xattaxtaga har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqariladi va berilgan so'zlarning bo'g'inlarini topib ko'rsatadi. Kim oldin qo'l ko'tarsa o'sha o'quvchilardan so'raladi. Qaysi o'quvchi ko'p so'zning bo'g'inini topib ko'rsasa, o'sha o'quvchi g'olib hisoblanadi va rag'batlantiriladi. O'yinning bu turini sinfdagi istalgan ikki yoki uch o'quvchi o'rtasida ham o'tkazish mumkin. (*dono, dala, toza, osma, sina, ovchi*)

O'yinning uchunchi varianti.

Sinfdagi barcha o'quvchilar uchun so'zlar beriladi. Bunda barcha so'z birdan o'quvchilarga ko'rsatiladi. Sinf bolalarining hammasi tavsiya qilingan so'zdagi bo'g'inlarning o'rnini topishga kirishadi. O'quvchilar *ol-ma* (2-1), *uy-cha* (4-7), *ol-g'a* (1-4), *oy-na* (8-1), *Za-ri-na* (5-5-1) so'zlarini jadvalning yenisiga qarab bo'g'inlarning qaysi qatorda joylashganini qavs ichida yozib ko'rsatishadi. Bu ularning javob berishiga ko'maklashadi. Birinchi qo'l ko'targan o'quvchidan so'raladi, har bir to'g'ri javobi uchun belgilangan ball beriladi. Tez va to'g'ri javob bergan o'quvchi o'yin g'olibi hisoblanadi.

Kim ko'p bo'g'in qo'shadi o'yini.

“Bo'g'inlar lotosi” bilan ishlash yuzasidan o'quvchilar ma'lum darajada bilim va ko'nikma hosil qilishgandan keyin so'z tuzish bo'yicha grammatik o'yin o'tkaziladi. Bu o'yinda har bir guruhga ma'lum bo'g'in berilib, o'sha bo'gin ishtirokida kim ko'p bo'g'in qo'shadi o'yini o'tkaziladi. Agar o'yin parta qatorlari

orasida o'tkazilsa, qatorlar soniga qarab xattaxta bo'lib qo'yiladi, xattaxtaning yuqori qismiga tavsiya yetilgan bog'in yozib qo'yiladi.

I	II	III
<u>Ol</u>	<u>Ish</u>	<u>Oy</u>
olcha	ishchi	oyna
olma	ishla	oysha
oldi	ishga	oyga

Jadvalga qarab so'z tuzish o'yini.

Bu o'yin o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Bolalar jadvaldagi bo'g'inlarni bir-biriga qo'shib so'z hosil qiladi. O'yinning muhim tomoni shundaki, "Bo'g'inlar lotosi" bilan o'tkazilgan boshqa o'yinlarda o'qituvchi tavsiya yetgan so'zlarni jadvaldan topib ko'rsatishi talab qilinadi. Jadvalga qarab so'z tuzish o'yinida yesa bolalar yerkin kuzatib, o'zlari istalgan bo'g'inlarni qo'shib so'z tuzishadi. Ushbu o'yinni o'tkazishda o'quvchilar musobaqada yutib chiqish uchun ba'zan jadvalda bo'lmagan bo'g'inlar ishtirokida ham so'z tuzib yuboraveradi. Bolalar tuzgan bunday so'zlarda ba'zan uch harfli bo'g'inlar ham uchrab qoladi. Natijada kuzatib turgan boshqa o'quvchilar buni tez payqab qoladi. Ana shunday o'yinlar orqali o'quvchilar bo'g'inlardagi tovushlar soniga asta-sekin yetibor berib, ko'p harfli bo'g'inlarni ham o'rganib oladi. Bu o'yin yakka birinchilik, guruhlar orasida musobaqa va ikki, uch o'quvchi o'rtasida ham o'tkazilishi mumkin. Har qanday holatda ham yozilishi lozim bo'lgan so'zlar soni belgilab qo'yilishi lozim. Ko'proq ikki, uch o'quvchi o'rtasida o'tkazilganda qiziqarliroq chiqadi.

I

II

III

1. <i>ma-na</i>	1.ov- <i>chi</i>	1.uy-da
2. <i>ol-ma-di</i>	2.ga-la	2. uy-ni
3. <i>da-la-da</i>	3. uy-cha	3.pa-na-da
4. <i>ka-bi</i>	4. ti-la-di	4.cha-la-di
5. <i>o'r-to-g'i</i>	5. si-na-di	5. xi-na
6. <i>Ma-li-ka</i>	6. ik-ki	6.Xa-di -cha

Biz yuqorida ko'rib o'tgan "Bo'g'inlar lotosi"da ikki harfli bo'g'inlar o'rin olgan. Bu jadval 1-2- sinflarga mo'ljallangan. 3-4- sinflar uchun "Bo'g'inlar lotosi" tuzilganda 3 va 4 harfli bo'g'inlar ham olinadi. Natijada bo'g'inlar soni ko'payadi, o'yin birmuncha murakkablashadi. O'z navbatida o'quvchilarning faolligi oshib, fikrlash darajasi kengayadi. O'yin yanada qiziqarliroq tus oladi. Bu sinflarda ham 1-2-sinflardagidek o'yin turlaridan foydalanish mumkin.

So'zning o'rtasidan bir bo'g'inni tushurib qoldirib yangi so'z hosil qilish o'yini.

Bu o'yin o'quvchilarning bo'g'inlarni amaliy o'rganib olishiga yordam beradi. So'zlarning bo'g'inlardan tashkil topishini bilib oladi. Ayrim olingan bir bo'g'inning so'zga qo'shilishi bilan so'z ma'nosining o'zgarishini anglab yetadi. Ba'zi hollarda so'zdan bir bo'g'inning tushib qolishi natijasida so'z ma'nosining o'zgarishini amalda bajarib ko'rish imkonini beradi. Ushbu o'yinni yuqori sinflarda o'tkazganda, tushib qolgan bo'g'in so'zning lug'aviy yoki grammatik ma'nosini o'zgartirayotganini ko'rsatish qo'shimcha topshiriq qilib berilishi mumkin.

Bola dunyoga kelishi bilan ota-ona va qarindosh-urug'lari kundan-kun o'sib borayotgan yosh inson faoliyatida odamlarga xos har xil harakatlarni ko'rgisi keladi va tez orada bu orzularining ro'yobga chiqayotganligining guvohi bo'ladi. Dastlabki davrlardan boshlab ona o'z bolasining qo'l-oyoq va gavda harakatlarini

o`yin sifatida shakllantiradi. Keyinchalik bolaning butun faoliyati o`yin bilan bog`liq bo`ladi. Asta-sekin o`yin yosh bola hayotining asosiy mashg`ulotiga aylanadi. O`yin bolani aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biridir. Bolalar o`yinlari yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishiga samarali ta`sir ko`rsatadi. O`yin vaqtida bolaning sezgi va idroki, tafakkur va xayoli, xotira va diqqati, iroda va hissiyoti kabi ruhiy jarayonlari ishtirok etadi.

O`yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo`lish, jasur, qat`iyatli bo`lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatarning tarkib topishida yordam beradi. Bola kattalarning kundalik hayotiy faoliyatidagi yumushlarni o`yin orqali bajarishga intiladi. Garchi bolalar o`yinlari mazmunan kattalar faoliyatining bir ko`rishini bo`lsa-da, uning o`ziga xos jihatlari bor. Birinchidan, bola o`yinni o`z xohishi bilan erkin va ijodiy bajaradi. Bu o`yinlar emotsional bo`lib, bolani o`ziga rom qilib oladi. Bola o`yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, o`rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o`yinlari mazmuniga ko`ra o`yinchoqli, harakatli va didaktik turlarga bo`linadi. Bu o`yinlarning barchasi bolalarni faoliyat yuritishga chorlaydi. Didaktik o`yinlar esa bolaga ta`lim berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Tajriba - sinov ishlari

Biz malakaviy ishimizni yozish jarayonida Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullariningdan foydalanishga doir usullar haqida batafsil to'xtaldik. Qanday usul va tajribalardan foydalanilsa samarali natijalarga erishish mumkin degan masala ustida ilmiy izlanishlar olib bordik. Ishlab chiqqan usullarimizni Samarqanl shahridagi 14- umumta'lim maktabining 1-A – sinfida tajribadan o'tkazdik. Nazorat sinfi etib mazkur umumta'lim maktabning 1-B – sinfini tanladik. Ma'lum bir muddat o'tgach, har ikkala sinf o'quvchilari bilim saviyasini solishtirib ko'rdik. Bu boradagi fikr-mulohazalarimizni, xulosalarimizni, “Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullari”ning afzal tomonlari, ahamiyati va tajriba davomida erishgan yutuqlarimizni to'la yoritishga harakat qildik. “Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimizni umumta'lim maktablarining “Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga “Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullari” mavzusidagi qo'llanma sifatida foydalanishni taklif etamiz.

Biz tajriba-sinov jaroyonining boshida, o'rtasida va oxirida boshlang'ich sinf o'quvchilarining Savod o'rgatish darslarida nutq o'stirish usullaridan so'ng bilim va ko'nikmalarining shakllanishi hamda o'sib borishini og'zaki savol-javob, test va yozma ishlar tarzida aniqlash usullari orqali tekshirib, nazoratdan o'tkazib bordik.

Tajriba-sinov o'tkazishdan oldingi har ikkala sinf o'quvchilarining ko'rsatkichlari tajriba-sinov o'rtasiga borib tajriba-sinov o'tkazayotgan 1^A-sinf o'quvchilarida o'sib borayotganini, ularda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, rivojlanib borayotgan qobiliyatlarini va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ko'rib, bu borada olib borayotgan ishlarimizni sidqidildan davom ettira boshladik. Tajriba-sinov yakuniga borib, nazoratga olgan 1^B- sinf o'quvchilariga qaraganda tajriba-sinov ishlarini olib borayotgan 1^A-sinf o'quvchilarida ijobiy o'zgarishlar ro'y berganining guvohi bo'ldik.

Tajriba-sinov yakunida quyidagi samarali natijalarga erishdik:

1. Og'zaki nutqlari rivojlantirildi;
2. Lug'at boyliklari oshirildi;
3. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
4. Ona tili grammatikasiga oid bilim va ko'nikmalari shakllantirildi;
5. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari rivojlantirildi;
6. Tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
7. Dunyoqarashlari kyengaytirildi;
8. O'z ona tilisiga bo'lgan myehr-muhabbatlari oshirildi;
9. Bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan qiziqishlari oshirildi;
10. Mashg'ulotlar davomida faol ishtirok etish xususiyatlari rivojlantirildi;
11. O'zlashtirish ko'rsatkichlarining oshirilishiga erishildi;

Tajriba – sinov sinfi hamda nazorat sinflari o'quvchilarining faoliyatlarini bir –biriga taqqoslab, tajriba-sinov natijasida erishilgan yutuqlarni quyidagicha shkala va diagrammalarda e'tiborimizga havola qilamiz:

1. O'quvchilar davomati

Tajriba davri Sinflar	Tajribadan oldin	Tajribadan so'ng
1^A -sinf	91%	94%
1^B sinf	90%	91%

Ko'rinib turibdiki, tajriba o'tkazayotgan sinfimizda tajriba o'tkazishdan oldin o'quvchilar davomoti 91% ni tashkil qigan bo'lsa, tajribadan so'ng davomot 94% ga ko'tarilgan. Nazorat sinfida esa o'quvchilar davomoti 1%ga o'zgargan.


2. O`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari quyidagicha ko`rinishga ega bo`ldi:

Tajribadan oldin:

O`zlashtirish ko`rsatkichlari	Jami o`quvchi	a`lo	yaxshi	o`rta	qoniqarsiz
1 ^A –sinf	32	6	14	10	2
1 ^B –sinf	30	5	13	10	2

TAJRIBADAN OLDINGI NATIJA

1^{“A”} –sinf tajriba sinf
1^{“B”} –sinf nazorat sinf



TAJRIBA SINF

5 baho – 6 ta - 17 %
 4 baho – 14 ta – 39 %
 3 baho – 10 ta - 28 %
 2 baho – 2 ta - 6 %

NAZORAT SINF


5 baho – 5 ta - 17 %
 4 baho – 13 ta - 43 %
 3 baho – 10 ta - 33 %
 2 baho – 2 ta - 7 %

Tajribadan so`ng:

O'zlashtirish ko`rsatkichlari	Jami o`quvchi	a`lo	yaxshi	o`rta	qoniqarsiz
1^A –sinf	32	10	13	8	1
1^B –sinf	30	8	12	8	2

TAJRIBADAN KEYINGI NATIJA

1^A -sinf tajriba sinf
1^B -sinf nazorat sinf



TAJRIBA SINF

5 baho – 10 ta - 30 %
 4 baho – 13 ta - 43 %
 3 baho – 8 ta - 24 %
 2 baho – 1 ta - 3 %

NAZORAT SINF

5 baho – 8 ta - 24 %
 4 baho – 12 ta - 36 %
 3 baho – 8 ta - 24 %
 2 baho – 2 ta - 6 %

Savod orgatish darslarini yangi pedagogik texnologiyalar, ayniqsa, o`yin tarzida tashkil etish orqali o`quvchilarning o`zlashtirish ko`rsatkichlari yuqoridagi shkalda ko`rsatilgan natijalarni qayd etdi.

Tajriba sinfida yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilar tajribadan oldin 2 nafarni tashkil etgan bo`lsa, tajribadan so`ng ushbu sinfda yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilarning 1 nafari o`rta bahoga 1 nafari yomon bahoga

o`zlashtira boshladilar. Nazorat sinfida esa yomon bahoga o`qiydigan o`quvchilar 2 nafarligicha qoldi. Avval ular 2 nafarni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng yana 2 nafarni tashkil qildi.

O`rta bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 1<sup>A</sup>-sinfda 10 nafar edi. Tajribadan so`ng 2 nafarga kamayib, 8 nafarni tashkil qildi. Ushbu sinfda o`rta va qoniqarsiz bahoga o`qiydigan o`quvchilar 12 nafarni tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng ular 9 nafarni tashkil qildi. Bu 25% o`quvchilar yaxshi bahoga o`zlashtirganliklarini bildiradi.1<sup>B</sup> -sinfda esa tajribadan oldin 10 nafar o`quvchi o`rta bahoga o`qishgan bo`lsa, tajribadan so`ng ular 8 nafarni tashkil qildi.

Yaxshi bahoga o`qiydigan o`quvchilar avval 1^A -sinfda 14 nafarni tashkil qilgan edi. Tajribadan so`ng ular 14 nafarni tashkil qildilar. Ushbu sinfda 6 nafar o`quvchi o`rta bahodan yaxshi bahoga o`zlashtirganliklarini etiborga olsak, jami 7 nafar o`quvchi a`lo bahoga o`qiy boshlagan bo`ladilar. O`z-o`zidan ushbu sinfda a`lo bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 10 nafardan 15 nafarga oshadi. Nazorat sinfida esa tajribadan oldin yaxshi bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 8tani tashkil qilgan bo`lsa, tajribadan so`ng yaxshi bahoga 10 nafar, a`lo bahoga o`qiydigan o`quvchilar soni 7 nafarga oshadi.

XULOSA

Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy vazifa har tomonlama kamol topgan sog'lom, qobiliyatli, o'z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug' maqsadni ro'yobga chiqarish xalq ta'limi tizimiga qarashli barcha xodimlar va keng o'qituvchilar ommasidan o'z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish xilma-xil metodik usullarni o'ylab topish hamda uni maktab hayotiga tadbiq etishni talab qiladi. Bugun maktablarda ta'lim olayotgan o'quvchilar ilmfan, texnika taraqqiyoti erishgan bir qator yutuqlardan bahramand bo'lgan ma'lum darajada bilimli kishilardir.

Bugungi Davlat ta'lim standarti va ta'lim tizimi o'qituvchilar oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o'tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur. Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo'lgan bilimlar hajmini, o'zida hosil qiladigan ko'nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o'z navbatida o'quvchining mashg'ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o'quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi, saviyasi va bilimni qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish, o'qitish prinsiplari va myetodlariga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Biz tajriba-sinov mashg'ulotlarini olib borish jarayonida shunga amin bo'ldikki, Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullari metodlarni qo'llash, yangi pyedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, dars qismlarida sport o'yinlaridan, turli xil musobaqalardan yoki qiziqarli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarda, nafaqat, chuqur bilim va ko'nikmalarini hosil qilishda, balki insoniy fazilatlarini o'stirib borishda samarali natijalar beradi.

Qo'llagan usullarimiz orqali o'quvchilarning Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullariga oid tushunchalarini o'stirishga harakat qildik. Natija esa yomon bo'lmadi.

Savod o'rgatish darslarida o'quvchilarning nutqini o'stirish usullardan, qiziqarli o'yinlardan foydalanganimizda o'quvchilarning, avvalo, darsiga bo'lgan

qiziqishlari ijobiy tomongan o'zgardi. Darsiga qiziqmagan o'quvchilarda darsga qiziqish uyg'ota oldik.

Eng asosiysi, tuli xil qobiliyatlari, talant qirralarini rivojlantirishga, bilim va ko'nikmalarni tyez o'zlashtirib olishlariga, ona tili darsi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz, sharqona odob-axloq normalarini rivojlantirishga erishdik.

Bundan tashqari, Savod o'rgatish darslarida qiziqarli o'yinlar o'tkazish, sinf o'quvchilarini kichik guruhlariga bo'lib ishlash kabi usullardan foydalanganimizda o'quvchilarning mashg'ulot davomida erkin harakat qila olishga, o'zlarida his etayotgan tortinchoqlik, uyatchanlik, biladigan narsasini aytib byerishga jur'at eta olmaslik kabi salbiy xarakterlaridan qutulishga, erkin fikrlash, mustaqil ravishda xulosa chiqarish, fikr-mulohazalarini va xulosalarini erkin bayon eta olish, kamtarlik, rostgo'ylik, hushmuomalalik, mehnatsevarlik kabi qobiliyatlarini shakllantirishga va uni rivojlantirishga erishdik.

Savod o'rgatish darslarida olib brogan tajriba-sinov ishlarimiz orqali biz quyidagi natijalarga erishdik:

1. Og'zaki nutqlari rivojlantirildi;
2. Lug'at boyliklari oshirildi;
3. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
4. Ona tili fanidan qo'shimcha mashqlar ko'nikmalari
5. Fikrlash qobiliyatlari rivojlantirildi;
6. Tafakkur qilish qobiliyatlari rivojlantirildi;
7. Dunyoqarashlari kyengaytirildi;
8. O'z ona tilisiga bo'lgan myehr-muhabbatlari oshirildi;
9. Bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan qiziqishlari oshirildi;
10. Mashg'ulotlar davomida faol ishtirok etish xususiyatlari rivojlantirildi;
11. O'zlashtirish ko'rsatkichlarining oshirilishiga erishildi;

Savod o'rgatish darslaridani noan'anaviy usullardan, didaktik o'yinlardan foydalangan holda tashkil etish o'quvchilarning jajji qalblarida milliy iftixor va milliy g'ururni shakllantirish bilan birga kamtarlik, rostgo'ylik, hushmuomalalik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini rivojlantirish hamda komil inson bo'lib yetishishlarida katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarning, nafaqat Savod o'rgatish darslarida balki boshqa har qanday dars turlari davomida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, noan'naviy dars usullaridan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashish juda ham katta samarali natijalar berishiga ishonch hosil qildik.

TAVSIYALAR

Boshlang'ich sinf ona tili darslarini, xususan, Savod o'rgatish darslarini turlicha tashkil etish mumkin. Bu esa darsning samaradorligini oshiradi, bolalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

Savod o'rgatish darslarida mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish orqali o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z fanini chuqur bilishi kerak;
2. O'quvchilarning ruhiyati, xarakter-xususiyatlari bilan yaqindan tanishgan bo'lishi lozim;
3. Mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarishda yangi pedagogik texnologiyadan unumli foydalanish lozim;
4. Vaqtni yo'qotmaslik uchun darsni loyihalab olish zarur;
5. Mavzu yuzasidan har xil ko'rgazmali qurollar, tarqatmali materiallar, krassvordlar, rebuslar, skanvordlar, test savollari tayyorlay bilishlari lozim;
6. Dars jarayonida o'qituvchi asosiy figurani emas, balki o'quvchi asosiy figurani tashkil etishi kerak;
7. O'quvchilarni ko'proq guruhlarda ishlashga yo'naltirish, ularni mazkur mavzular bo'yicha o'z fikrini qo'rqmay, tortinmay, erkin va mustaqil bayon etishga, mushohada yuritishga yo'naltirish lozim;

8, Mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish jarayonida boshqa fanlarni shu mavzu bilan integratsiyalab, ya'ni bog'lab olib borish lozim.

Agar o'qituvchilar yuqorida ta'kidlab o'tganlarimiz asosida darslarni tashkil etib borsalar, o'quvchilarning ona tili grammatikasi bo'yicha bilim darjalarining kengayishiga, ularni har bir mavzuga biftarq bo'lmasligiga, o'zining mavzu bo'yicha erkin va mustaqil mushohada yurita olishlariga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarmiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi,” Xalq so’zi, Toshkent, 2011-yil, 22-yanvar 16-son, 4 bet.
2. Karimov I.A. “O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so’zi” “O’zbekiston ovozi”., 2010-yil, 1-sentabr, 105-son, 4 bet
3. Karimov I.A. “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – usuvor maqsadimizdir” “Ishonch”, 2010-yil, 8-dekabr. 4 bet
4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” “Ma’naviyat”, Toshkent. 2008 -yil. 176 bet.
5. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. “Sharq” Toshkent. 1999- yil. 184 bet
6. Karimov I.A. “Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”. “O’zbekiston” Toshkent. 1998-yil. 194 bet.
7. Karimov I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi”. 5-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1997- yil. 166 bet.
8. Karimov I.A. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. 2-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1996- yil. 172 bet.
9. Karimov I.A. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”. 3-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1996- yil. 164 bet.
10. Karimov I.A. “Bunyodkorlik yo’lidan” 4-tom “O’zbekiston” Toshkent. 1996- yil.
11. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent “Sharq” nashriyoti, 19983-bet.
12. Barkamol avlod orzusi. Toshkent “Sharq” nashriyoti, 1999, 13-bet.
13. ¹I. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali, 1998y, 2-son, 29 bet.
14. I. Karimov «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yuksaltirishdir». T.: O’zbekiston, 2010-y. 48-bet.

II Ilmiy-uslubiy adabiyotlar:

1. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim . 2006-yil, 5- son . 48- bet.
2. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim . 2006-yil, 5- son. 48- bet.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Toshkent., 1998-yil
4. Abdullayeva Q.M.Yusupov.S.Raxmonqulova. “O'qish kitobi” 2-sinf uchun darslik. “O'qituvchi” Toshkent. 2010- yil.176-bet.
5. R.Safarova.M.Inoyatova.M.Shokirova.L.Shermatova. “Alifbe” 1-sinf uchun darslik. Toshkent “Ma'haviyat” nashriyoti, 2010-yil.
6. Umarova M., Hakimova SH “O'qish kitobi” 3-sinf uchun darslik. “Cho'lpon” Toshkent. 2010- yil.240- bet.
7. Ushinskiy A“Ona tilini dastlabki o'qitish ” Boshlang'ich ta'lim 2002-yil 5-son
8. Ikromova.R Sh.Yildosheva.D.Shodmonova.X.Gulomova, Ona tili . 4- sinf uchun ”O'qituvchi” Toshkent. 2010-yil
9. Lyamin V.T. Integratsiya darslari va ularga sharhlar. «Boshlang'ich maktab» jurnali Toshkent. 2000- yil. 212- bet.
- 10.. S.Matchonov,A.Shojalilov,X.Fulomova,Sh,Sariev,Z,Dolimov.O'qish kitobi 4-sinf uchun darslik. “Yangiul poligrafik service” T.2011-yil.186- bet.
- 11.Fuzailov.S.M.Xudoyberganova,Sh.Yuldosheva. Ona tili. 3- sinf uchun ”O'qituvchi”.Toshkent.2010-yil. 144- bet.
- 12.Qosimova K.S.Fuzailov.A.Ne'matova. Ona tili . 2- sinf uchun ”Cho'lpon”. Toshkent. 2010.-yil.112- bet.
- 13.G'apparova T, E.Shodmonov.X.Gulomova. Ona tili . 1-sinf uchun. ”Sharq”. T. 2010yil.146 bet.
- 14.G'ulomova X. 4- sinfda ona tili darslari. ”O'qituvchi”. T. 2003-yil.192 b
- 15.Abdullayeva Q. Savod o'rgatish metodikasi. Toshkent. O'qituvchi. 1996

16.G'afforova T., Nurullaeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. –Toshkent: Ilm ziyo, 2004. –80 bet.

17. Gapparova T., Shodmonov E. , Eshturdiyeva G.l , “Alifbe ”; “Savod ” ; “ Ona tili ” T ., “O’qituvchi ”2010 yil

18.Abdullayeva Q. Savod o‘rgatish metodikasi. Toshkent. O‘qituvchi. 1996 yil.

III Internet materiallari:

1. <http://www.google.co.uz/>
2. <http://www.referat.uz/>
3. <http://www.ziynet.uz/>

